5. Faol (aktiv) xavfsizlikka nimalar kiradi?
6. Passiv xavfsizlikka nimalar kiradi?
7. Atrof-muhit xavfsizligiga nimalar kiradi?
8. Avtomobil konstruksiyasining rivojlanishi.
9. Intellektual avtomobilning bort tizimlari.
10. Avtomobillarni boshqarish tizimlari.
11. Haydovchilar uchun axborot bort tizimlari.
12. Axborot yig‘ish va uzarish tizimlari.
13. Avtomobil konstruksiyasi qaysi yo‘nalishlarda rivojlanadi?
14. Avtomobil xavfsizligini oshirish usullari.
15. Atrof muhitga zararli ta’sirni va energiya sarfini kamaytirish.
16. Iste’molchi uchun avtomobil jozibadorligini oshirish.
17. Elektromobillarning tasnifi va qo‘llanilishi.
18. Elektromobillarning afzalliklari.
19. Elektromobillarning kamchiliklari.
20. Elektromobillarda qo‘llaniladigan akkumulatorlar.
21. Elektromobillarda qo‘llaniladigan elektrdvigateellar.
22. Gibrild avtomobillar tasnifi va qo‘llanilishi.
23. Gibrild avtomobillarining tuzilishi va ishlashi.
24. Gibrild avtomobillarining asosiy vazifalari.
25. Gibrild avtomobillarning afzalliklari.
26. Gibrild avtomobillarning kamchiliklari.
27. Haydovchisiz avtomobillarning qo‘llanilishi.
28. Haydovchisiz avtomobillarning tuzilishi.
29. Avtomatlashhtirilgan haydashni baholashning bosqichlari.
30. Haydovchisiz avtomobillarning afzalliklari.
31. Haydovchisiz avtomobillarning kamchiliklari.
32. Haydovchisiz avtomobillarga qanday datchiklar o‘rnataladi?

2-mavzu. Avtotransport vositalarini klassifikatsiyalash metodologiyasi.

Yengil, yuk avtomobillari va avtobuslar agregatlarining joylashtirilishi(komponovochnix) tahlili.

Reja:

1. Avtomobilning umumiy komponovkasi.
2. Yengil avtomobillarning komponovka sxemalari.
3. Avtobuslarning komponovka sxemalari.
4. Yuk avtomobillarining komponovka sxemalari.

1. Avtomobilning umumiy komponovkasi

Avtomobilning umumiy komponovkasining asosiy maqsadi komponovka sxemasini tanlash; texnik topshiriq talablarini bajarish (gabarit o‘lchamlari, o‘qlarga tushadigan massa, to‘lla massa va x.k.); avtomobilning asosiy agregatlarini ratsional joylashtirishdan iborat.

2. Yengil avtomobillarning komponovka sxemalari

Yengil avtomobillarning komponovka sxemalari kuzov shakli xamda dvigatel, transmissiya va yetakchi g‘ildiraklarning o‘zaro joylashuviga ko‘ra aniqlanadi. Zamonaviy yengil avtomobillar kuzovining shakli quyidagicha bo‘lishi mumkin: bir xajmli; ikki xajmli; uch xajmli.(1.1-rasm). Turli xajmli kuzovlarning afzallik va kamchiliklari 1-jadvalda keltirilgan:




2.1-rasm. Yengil avtomobillar kuzovining shakllari

2.1-jadval.


Yengil avtomobillar kuzovining taxlili.

Кўнгил шакли бўйи чалынти	Хўжайинчи автомобиллар навоми:	Ажратилин	Камчилаги
Бир чалынти	Чарни санбўри автомобиллар навоми.	Топони ўзинчалик иштимол. Салон салми кунга. Кабинчалик иёлатчилари тутуб	Олди кунсан кунта Онегрик заруди кунори зоди куннага;
Иккита чалынти	Чарни санбўри автомобиллар навоми. Учкади автомобиллар.	Хўжайинчи орада кўнгил иёлатчилари эса ташни хўйинчилари мумкин.	Кўнгилни ташниб ёки Кўнгилни ташниб-чални. Бўйининг орада кўнгилда зарудини ташниб чални.
Уч чалынти	Чарни ташни санбўри автомобиллар. Зуқни. Камрингент.	Чарнини ўзинчалик иёлатчилари тутуб. Кўнгил кундан иёлатчиларни кечиши. Даромадни кечиши кечиши.	Габарит узунлигини кунта

Yengil avtomobillar kuzovining shakli va o'lchamlari xaydovchi, yo'lovchi va asosiy agregatlarning o'lchamlari va joylashuviga qarab tanlanadi. Shuningdek, xaydovchi va yo'lovchilarning joylashuvidanagi qulaylik va xaydovchi joyi-dan ko'rinvchanlik xam xisobga olinadi.




2.2-rasm. Joylashuvdagagi qulaylik va xaydovchi joyidan ko'rinvchanlikni aniqlovchi geometrik parametrlar.



2.3-rasm. Yengil avtomobil komponovkalari. a-klassik (dvigatel oldinda joylashgan, orqa g'ildiraklar yetakchi); b-old yuritmali; v-dvigatel o'rtada joylashgan; g-dvigatel orqada joylashgan.


So'nggi yillarda yengil avtomobillarda gibridda kuch aggregatini (ichki yonuv dvigateli + elektrodvigatel) qo'llanilishi ortmoqda. Gibridda kuch aggregatida uch xil yuritma turi bo'lishi mumkin: ketma-ket; parallel; aralash.



2.4-rasm. Gibridd avtomobil yuritmasining turlari.

3. Avtobuslarning komponovka sxemalari

Zamonaviy avtobuslarning komponovka sxemasi quyidagi faktorlar bilan aniqlanadi: kuzovning konstruksiyasi; salonning tuzilishi; dvigatel, transmissiya va yetakchi g'ildiraklarning joylashuvi.



2.5-rasm. Avtobuslar kuzovlarining shakllari: a – vagon tipidagi; b - vagon tipidagi qo'shaloq; v – yarim kapotli; d – kapotli; e – ikki qavatli.

Vagon tipidagi avtobusning asosiy afzalligi gabarit maydondan yaxshi foydalanishdadir, shuning uchun aksariyat o'rta, katta va alohida katta sinfdagi avtobuslar (yo'lovchilar soni 22ta va undan ko'p) vagon komponovkasiga ega. Yakka avtobusning gabarit uzunligi me'yoriy xujjalr bilan cheklangan (12 metrdan oshmasligi kerak). Qo'shaloq avtobuslarning sig'imi eng katta bo'lib, ularning uzunligi 18 metrgacha bo'lishi mumkin.

Alohida kichik va kichik sinfdagi mahalliy va qishloq joylarga xamda umumiy foydalanishga mo'jallangan avtobuslar kapotli komponovkaga ega. Kapotli avtobuslar yuk avtomobili shassisiga platforma o'mniga passajir salonini joylashtrish yo'li bilan yaratiladi, shuning uchun ularni loyixa-lashga, ishlab chiqarishga va foydalanishga kam mablag' sarflanadi.

Ikki qavatli avtobuslar keng tarqalmagan, sababi bu avtobuslarga yo'lov chilarning kirib-chiqishi noqulay va ag'darilish bo'yicha turg'unligi past.

Avtobus salonining komponovkasi o'tirib yoki turib ketayotgan yo'lovchilar soniga, o'rindiqlar soni va joylashuviga, eshiklar soni va kengligiga o'tish yo'laklari va x.k. larga bog'liq. YeEK OON №36 talablariga asosan katta sig'imdag'i (yo'lovchilar soni 22tadan ko'p) avtobuslar uchta sinfga bo'linadi:

I sinf – shaxar avtobuslari bo'lib, ularda turib ketayotgan yo'lovchilar uchun xam joylar ajratilgan;

II sinf – shaxarlararo qatnaydigan avtobuslar bo'lib, ularda xam turib ketayotgan yo'lovchilar uchun qisman joylar ajratilgan;

III sinf – turistik avtobuslari bo'lib, ularda faqat o'tirib ketayotgan yo'lovchilar uchun o'rindiqlar o'rnatilgan.

Vagon turidagi avtobuslar uchta komponovka sxemasi bo'yicha ishlanadi: dvigatel oldinda (oldingi o'q oldida yoki ustida); dvigatel avtobus o'qlari orasida (bazada); dvigatel orqada orqa o'qdan keyin.


Avtobus komponovka sxemalari ekspluatatsion hususiyatlar (o'tag'onlik, boshqarish yengil va qulayligi, passajir o'rinlarining qulayligi, texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashga sarflanadigan mehnat hajmi) ko'rsatkichlari va komponovka parametrlarini (konstruksiya murakkabligi,

radiator, sovutish tizimi, yukxonani joylashishi va x.k.) aniqlovchi konstruktiv o‘ziga xosligi bilan baholanadi. Sanab o‘tilgan ko‘rsatkich va parmetrlar avtobusning o‘lchamli va og‘irlik parametrlariga bog‘liq.

2.4 – jadval.

Turli komponovka sxemalari avtobuslarning taxlili

Shassi	Shassi bilan shaxsho qurilma tizimi (dizayn, materiali, tezlik).	Shassi bilan shaxsho qurilma tizimi (dizayn, materiali, tezlik).	Shassi bilan shaxsho qurilma tizimi (dizayn, materiali, tezlik).
Shassi bilan shaxsho qurilma tizimi (dizayn, materiali, tezlik).	—	—	—
Avtobus shaxsho qurilma tizimi.	+	+	—
Riyol qurilma (shaxsho parametrlari).	+	+	—
Shaxsho qurilma (shaxsho parametrlari).	+	+	—
TVA shaxsho qurilma tizimi.	+	—	—




2.6-rasm.

Avtobuslarda shassi
agregatlarining
joylashuvi sxemalari. 1
– dvigatel; 2 – ilashish
mufrasi; 3 – uzatmalar
qutisi; 4 – kardanli
uzatma; 5 – asosiy
uzatma; 6 – burchak
reduktorasi.

4. Yuk avtomobillarining komponovka sxemalari

Yuk avtomobillarida komponovka sxemasi o‘qlar soni, yetakchi va boshqariluvchi o‘qlarning joylashuvi, kabina va dvigatelning o‘zaro joylashuvi orqali aniqlanadi. Yuk avtomobillarida o‘qlar sonining ko‘paytirilishi uning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshiradi (o‘qlarga tushadigan massa cheklovlarini ta’minlagan xolda). Yetakchi va boshqariluvchi o‘qlarning joylashuvi avtomobilning vazifasiga bog‘liq. Ikki, uch va to‘rt o‘qli yuk avtomobillari ning keng tarqalgan sxemalari 7 –rasmda keltirilgan. Ularning afzallik va kamchiliklari 6-jadvalda keltirilgan.



2.7 – rasm. Yuk avtomobillarida yetaklovchi va boshqariluvchi o‘qlarning joylashuvi. a – ikki o‘qli; b - uch o‘qli; v - to‘rt o‘qli;

2,5 – jadval.

Yetakchi va boshqariluvchi o‘qlar joylashuvining taxlili

Yusulli o‘sish sug‘olligi	Aksessori	Jadvalda
Yusulli o‘sish sug‘olligi	Yusulli o‘sish sug‘olligi, yaxshi yurish, qurashuv, tashuvchi o‘sish sug‘olligi.	Yusulli o‘sish sug‘olligi. Hujum, qurashuv, tashuvchi o‘sish sug‘olligi. Oshirish. Mashqaralash yurish.
Yusulli o‘sish sug‘olligi yurish ravonligi	Mashqaralash yurish.	Yusulli o‘sish sug‘olligi. Hujum.
Yusulli o‘sish sug‘olligi yurish ravonligi qurashuv tashuvchi o‘sish sug‘olligi	Mashqaralash, yurish ravonligi, qurashuv, tashuvchi o‘sish sug‘olligi.	Yusulli o‘sish sug‘olligi. Hujum.

Komponovka sxemasining mukammalligi quyidagi ekspluatatsion xususiyatlar orqali baholanadi: material sarfi; o‘tag‘onligi; yurish ravonligi; kabinadagi shovqin; mikroiqlim; xaydovchi o‘rning qulayligi; avtomobilga kirish va chiqish qulayligi; avtomobilni oson boshqarish; ta’mirga layoqatligi va x.k. Sanab o‘tilgan ekspluatatsion xususiyatlar avtomobilning asosiy o‘lchamlariga va og‘irlilik parametrlariga bog‘liq.

Avtomobilning asosiy o‘lchamlariga gabarit uzunligi, gabarit eni, gabarit balandligi, baza, koleya, platforma o‘lchamlari, og‘irlilik markazining koordinatalari va xaydovchi ish joyining parametrlari kiradi. Bu o‘lchamlar texnik topshiriqda beriladi va umumiy komponovkalashda tanlanadi.

Yuk avtomobillarida kabina va dvigatelning o‘zaro joylashuvi bo‘yicha uchta komponovka sxemalari mavjud:

- Kabina dvigatel ortida (kapotli komponovka);

3-mavzu. Avtotransport vositalarining yoqilg‘i tejamkorligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash metodologiyasi

Reja:

1. Avtomobil dvigatellarining evolyusiyasi.
2. Dvigatellarning bugungi kundagi holati.
3. Yuz yil davomida dvigatelsozlik tahlili
4. Dvigatellarning rivojlanish istiqbollari.

1. Avtomobil dvigatellarining evolyusiyasi.

O‘zining bir asrdan ko‘proq davom etgan tarixi davomida, IYodlar muhim evolyusiyani boshdan kechirdilar, ular avvalgilariga qaraganda ancha quvvatli, iqtisodiy, engil va ekologik jihatdan toza bo‘ldilar. Shu vaqt ichida avtomobil dvigatellari uchun ko‘plab alternativ variantlar taklif qilingan bo‘l-sa-da, bugungi kunda mavjud dvigatellarni real iqtisodiy jihatdan almash-tirish imkoniyati yo‘q. Bu, asosan, ushbu dvigatellar tomonidan ishlataladigan yonilg‘i ixcham shaklda saqlanishi mumkinligi va uning ta’minoti avtomobil-ning katta masofasi uchun erarli ekanligi bilan izohlanadi.

Birinchi avtomobillar 18-asrda paydo bo‘lgan bug‘ dvigatellari tomonidan harakatga keltirilgan va tashqi yonish dvigatellari hisoblangan. Ushbu dvigatellarda dvigatel silindrining tashqarisida yonilg‘i yoqilgan va dviga-tel silindriga bosim ostida yetkazib beriladigan va porshenni harakatga keltiradigan suv bug‘ini, aniqrog‘i gazni ishlab chiqarish uchun ishlataligan. Birinchi samarali bug‘ dvigatelining ixtirochisi 1784 yilda ixtirosi uchun patent olgan ingliz Jeyms Wattdir. O‘sha paytdagi bug‘ dvigatellari og‘ir va katta bo‘lgan, eng muhimi, ularning foydali ish koeffitsienti (FIK) juda past edi.

Silindr ichida yonilg‘i yonishi va kengaytirilgan gazlar porshenni harakatga keltiradigan yanada samarali dvigateli (ichki yonish) yaratishga bo‘lgan urinishlar faqat 1860 yilda fransuz mexanigi Jan-Eten Lenuar tomonidan birinchi samarali IYodni yaratgan va patentlagan paytda muvaffaqiyat qozondi. Ushbu dvigatelda harakatlanuvchi porshen silindrga havo bilan yonadigan gaz aralashmasini so‘rdi va porshen yurishining o‘rtasida aralash elektr uchquni bilan yondiriladi.

IYodni amaliy ishlatalish imkoniyati faqat silindrda gaz siqilganidan keyin paydo bo‘ldi. 1866 yilda nemis kashfiyotchisi Avgust Otto to‘rt taktli ichki yonish dvigatelia patent oldi, bunda yonish aralashmasidan oldin siqish prinsipi ishlataligan. Ushbu dvigatellardagi ish jarayoni Otto sikli deb nomlanadi. Ushbu prinsip bo‘yicha ishlaydigan IYodlar bug‘ dvigatellariga qaraganda ancha yuqori samaradorlikka ega edi va ularning o‘rnini almashadir, bugungi kungacha eng keng tarqalgan bo‘lib qolmoqda.


Keyinchalik ingliz Duglas Klark ikki taktli dvigateli ixtiro qildi, ammo bunday dvigatellar avtomobillarda keng qo‘llanilmadi.

1892 yilda Rudolf Dizel to'rt taktli Otto siklidan foydalanadigan dvigatel uchun patent oldi. Farqi shundaki, u yoqilg'ining silindrغا yetkazib beriladigan havo bilan aralashmasi emas, balki toza havo, kuchli siqilgan, yuqori haroratgacha qizib, silindrغا yuborilgan yoqilg'ini yoqish uchun uchqunlar-siz o'o'zidan alangalanish imkoniyati paydo bo'ldi.

Bugungi kunda dizel dvigatellarini yaratuvchisi nomi bilan ataladigan bunday dvigatellar avtomobillarning quvvat manbai sifatida keng qo'llaniladi.

Dizayn bo'yicha barcha avtomobil IYoDlari porshenli va rotorli bo'lishi mumkin.

Porshenli dvigatellarda yonilg'ining yonishi paytida kengayadigan gazlar porshenni harakatlantiratadi, uning to'g'ri chiziqli ilgarilanma-qaytma harakati tirsakli valning aylanishiga aylanadi. Yonlirish usuliga qarab, bunday dvigatellarni ikki guruhga bo'lish mumkin: uchqun (benzin) va siqishdan yondirish (dizel). Rotorli dvigatellarda kengaytirilgan gazlar aylanadigan qism - rotorga ta'sir qiladi. Rotorli dvigatellar gaz turbinali va rotor-porshenli dvigatellarga bo'linadi. Avtomobillarda eng ko'p ishlatiladigan porshenli IYoDlardir.



3.1-rasm.Porshenli ichki yonuv dvigateli

To'rt taktli dvigatel. Porshenli dvigatelnинг juda muhim parametri bu silindrning umumiy hajmining yonish kamerasi hajmiga nisbati aniqlanadigan siqish darajasi. Benzinli zamonaviy avtomobil dvigatellarining siqish nisbati taxminan 10 ga teng bo'lsa, to'rt taktli dizel dvigatellarining siqish darajasi kamida 20 ga teng.

To'rt taktli sikl ketma-ket quyidagi taktlarni o'z ichiga oladi: kiritish, siqish, ish yo'li va chiqarish.

Benzinli dvigatel ishlayotganda, kiritish takti boshida kiritish klapani ochiladi va porshen YuChNdan harakatga keladi. Porshen PChN tomon siljiganida, silindrda vakuum hosil bo'ladi va unga benzin va havo bug'lari aralashmasi kiradi, bu odatda yonilg'i-havo yoki yonuvchi aralashma deb ataladi. Porshen PChNdan o'tib ketgandan so'ng, tirsakli valning aylanishi

gazlar yuqori tezlikda kuch turbinasi va kompressor turbinasi kurakchalariga tushadi. Kuch turbinasi reduktor orqali transmissiyaga ulangan, kompressor dvigatelga havo etkazib berish uchun xizmat qiladi. Turbinadan chiqadigan issiq gazlar issiqlik almashtirgichga kiradi, u yerda dvigatelning yonish kamerasiga yetkazib beriladigan havo isitiladi va keyin atmosferaga chiqariladi. Issiqlik moslamasining mavjudligi gaz turbinali dvigatelning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Gaz turbinali dvigatellar kichik o'lchamlarda yuqori quvvatga ega. Bunday dvigatelning eng katta qismi issiqlik almashtrirgichidir. Bunday dvigatelda ilgarilanma-qaytma harakatning yo'qligi uning ishlashining yuqori darajadagi bir xilligini ta'minlaydi. Gaz turbinalarining boshqa afzalliklari past haroratlarda boshlash qulayligi, past zaxarlilik va turli xil (suyuq va gazsimon) yonilg'iда ishlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Gaz turbinali dvigatellar ko'p yonilg'i sarfi, ish payrida kuch-li shovqin va ularni ishlab chiqarishning yuqori narxi tufayli avtomobil-larda keng qo'llanilmadi. Gaz turbinali dvigatellarning muhim kamchiligi shundaki, avtomobilning keskin tezlanishini ta'minlay olmaydilar.

2. Dvigatellarning bugungi kundagi holati

Ilk ichki yonuv dvigatellari 140 yil avval yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, hozirgi zamonaviy dvigatellar bilan tuzilishi va ishlashi bo'yicha o'xshashliklari ko'p.

Ma'lumki, birinchi dvigatel uchun yonilg'i maxsus ichki yonuv kamerasida alanganuvchi gaz bo'lgan. Hozir ham o'sha davrdagidek, havo bilan dastlab aralashtirilgan benzin bug'lari ichki yonuv kamerasida uchqun yordamida o't oldirilgan. Shundan ko'rindiki, dvigatellarning asosiy prinsiplari o'zgarmay qolgan. Biroq, energiya samaradorlik va ekologiklik bo'yicha zamonaviy dvigatellar sezilarli ravishda yuksaldi.

Karbyurator va injektor

Yaqin kunlargaacha benzinli dvigatellarning asosiy elementi karbyurator bo'lib kelgan. Uning vazifasi yonilg'i va havo aralashmasini kerakli miqdorda zarur vaqtida hosil qilib berish hisoblanadi. XX asrda ishlab chiqarilgan avtomobil dvigatellari uchun bunday texnik yechimni hozir xam uchratish mumkin.



3.2-rasm. Karbyurator va injektor


Trubina parraklari bilan kompressor parraklari bitta o‘qda joylashganligi uchun biri aylansa ikkinchisi ham aylanadi va havoni bosim ostida silindr ichiga haydaydi.

Hozirda ekologik talablarning kuchayishi natijasida yangi yoqilg‘ini purkash tizimlari ishlab chiqarildi. Shulardan biri “Common Rail” yoqilg‘ini sepish tizimidir. Bu tizim Germaniyaning MAN avtomobillarida keng qo‘llanilgan.

“Common Rail” yoqilg‘ini purkash tizimi.

Common Rail sepish texnikasini qo‘llash dvigatelning ishiga sezilarli darajada ta’sir qiladi, jumladan uning ishlashdagi shovqini, ishlatilgan gazlarning zararliligi va massasi kamayadi, hamda o‘lchamlari kichrayadi.

Eng kattra burovchi moment tirsakli valining eng kam burchak tezligida bo‘ladi.



3.3-rasm. Common Rail-akkumlyator tizimi

Bu tizimdagi yangilik shundaki, mavjud forsunkalardan farqli o‘laroq Common Rail sepish tizimidagi forsunka pezoelement bilan jihozlangan, shuning uchun forsunkadagi xarakatlanuvchi massa 75% ga kamaygan va uning ishlash tezligi 4 baravar yuqori.

Forsunkaning ishini elektron boshqarish bloki boshqaradi. Elektromagnitli klapandagi sharik 9 elektromagnit ishga tushganda yuqori bosimli kanal 7 ni ochadi.

Natijada forsunka ignasi ketidagi bosim kamayadi, igna ko‘tariladi va yoqilg‘i yonish kamerasiga 1600 bar bosim bilan sepiladi.

Elektromagnit klapani ishlamaganda sharik 9 yuqori bosim kanali 7 ni berkitadi, igna ortidagi bosim ortadi va u yopiladi, yonilg‘ini sepish to‘xtaydi.

Common Rail tizimi yuqori bosimli yonilg‘i nasosini, yonilg‘i dozalovchi klapan, bosimini rostlovchi klapan(nazorat klapani), umumiyligi akkumlyator va injektorlarni o‘z ichiga oladi. Barcha elementlar yonilg‘i liniyalarini birlashtiradi. Yuqori bosimli yonilg‘i nasosi yuqori bosimli yoqilg‘ini yaratish va uning yonilg‘i akkumlyatoriga to‘planishida ishlatiladi.

Zamonaviy yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari plunjeler juftligiga oid.



3.4-rasm. Pezoelementli forsunka

Yoqilg‘i o‘lchash klapani dvigatelning ehtiyojlariga qarab yuqori bosimli yonilg‘i nasosiga etkazib berilgan yoqilg‘i miqdorini nazorat qiladi. Yuqori bosimli yonilg‘i nasosi bilan tizimli ravishda birlashtirilgan.

Yoqilg‘i bosimi rostlovchi klapan dvigatelning yukiga qarab tizimdagи yonilg‘i bosimini boshqarish uchun mo‘ljallangan. Yoqilg‘i akkumlyatoriga o‘rnatilgan.

Umumiy akkumlyator bir nechta funksiyalarni bajarish uchun mo‘ljallangan: yoqilg‘ini yig‘ish va uni yuqori bosim ostida ushlab turish, yuqori bosimli yonilg‘i nasosidan uzatish natijasida kelib chiqadigan bosim tebranishini yumshatish va yoqilg‘ini silindrlar orasida taqsimlash.

Injektorlar - bu dvigatelning yonish kamerasiga yonilg‘i purkash tizimning eng muhim elementidir. Injektorlar umumiy akkumlyator bilan quvurlar orqali bog‘langan. Tizimda elektrogidravlik yoki piezo injektorlar qo‘llaniladi.

Yoqilg‘i elektromagnit klapanni boshqarish orqali elektrogidravlik injektor orqali yuboriladi. Piezo injektorining faol elementi piezo kristallari bo‘lib, ular injektorning tezligini sezilarli darajada oshiradi. Common Rail tizimi datchiklarini, dvigatelni boshqarish blokini va dvigatel tizimlari uchun aktuatorlarni birlashtirgan dizel boshqaruv tizimi tomonidan boshqariladi.

Dizelni boshqarish tizimiga dvigatelning tirsakli valining aylanish tezligi datchigi, Holl datchiklari, gaz pedalining holati, havo oqimi o‘lchagich, sovutish suyuqligi harorati, havo bosimi, havo harorati, yonilg‘i bosimi, kislorod datchiki (lambda zond) va boshq datchiklar kiradi. Common Rail tizimining asosiy ijrochi mexanizmlari - bu injektorlar, yonilg‘i o‘lchash klapani va yonilg‘i bosimini rostlovchi datchiklardir.

Common Rail tizimining ishlash prinsipi

Datchiklardan keladigan signallarga asoslanib, dvigatelni boshqarish bloki yuqori bosimli yonilg‘i nasosi yoqilg‘ini o‘lchash klapani orqali etkazib beradigan zaruriy miqdordagi yoqilg‘ini aniqlaydi. Nasos yoqilg‘ini yonilg‘i kamerasiga quyadi. U yerda u yonilg‘i bosimi regulyatori tomonidan berilgan bosim ostida saqlanadi.


Dvigatelning samarali ishlashini oshirish uchun Common Rail tizimi dvigatelning bir siklida bir nechta yoqilg‘i purkashini ta’minlaydi. Shu bilan

birga, ular quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi: dastlabki purkash, asosiy purkash va qo'shimcha purkash.

Dvigatelning ishslash rejimiga qarab:

- ikkita dastlabki purkash – neytral holatda;
- bitta dastlabki purkash – yuklanish ortganda;
- purkash oldidan amalga oshirilmaydi - to'liq yuklanganda.

Forsunka yoki injektor orqali yonilg'ini yonish kamerasi ichiga sepish uch bosqichda amalga oshiriladi (2.5-rasm).



2.5-rasm. Uch bosqichli yonilg'i purkash.

- A – Birlamchi sepish;
B – Asosiy sepish;
C – Birlamchi sepishsiz bosimning o'zgarishi
D – Birlamchi sepish mavjud bo'lgandagi bosimning o'zgarishi
F – Qo'shimcha sepish.

Birlamchi sepish orqali yonish kamerasidagi bosim bir maromda ortadi, yonish kamerasi isiydi, shuning uchun yonish jarayonidagi shovqin kamayadi, asosiy yonish jarayoni bir tekisda va ancha yuqori bosim ostida amalga oshiriladi.

Yuklanmagan dvigatelda birlamchi sepishdagi yonilg'i miqdori yuklangandagidan ko'proq bo'ladi, chunki yonish kamerasi kiritish taktida ko'proq sovigan bo'lib, uni tezroq isitish kerak bo'ladi. Birlamchi sepish faqat salt yurishda va chala yuklamada amalga oshiriladi. Asosiy purkashdagi yonilg'i miqdori birlamchi purkalgan miqdorga shunday kam sepiladiki dvigatel quvvati birmuncha oshganda ham yonilg'iga bo'lgan talab ortmaydi.

Qo'shimcha sepish orqali ishlatilgan gazlar tozalanadi, natijada uning tarkibidagi qarriq moddalar miqdori kamayadi. Asosiy purkash dvigatelning ishslashini ta'minlaydi.

Chiqindi gazlarining haroratini oshirish va zarrachalar filtridagi kuydiruvchi zarralarning yonishini oshirish uchun qo'shimcha purkash amalga oshiriladi. Common Rail tizimini rivojlantirish purkash bosimini oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi:

- birinchi avlod - 140 MPa, 1999 yildan beri;
- ikkinchi avlod - 160 MPa, 2001 yildan beri;
- uchinchi avlod - 180 MPa, 2005 yildan beri;

- to‘rtinchi avlod - 220 MPa, 2009 yildan beri.

Purkash tizimidagi bosim qanchalik yuqori bo‘lsa, shuncha ko‘p miqdordagi yonilg‘i silindrga teng vaqt oralig‘ida quyilishi mumkin va shunga mos ravishda ko‘proq kuch sarflanadi.

Dvigatel tizimlarining ishini elektron boshqarish bloki boshqaradi. Bu maxsus kompyuter bo‘lib, 16 ta maxsus datchiklardan ma’lumotlarni elektr signallar ko‘rinishida qabul qiladi, ularni qayta ishlaydi va 12 ta buyruqni elektr signal ko‘rinishida forsunkalarning elektromagnit klapani va boshqa ijrochi moslamalarga ijroga jo‘natadi.

Ma’lumot beruvchi datchiklar quyidagilar:

1. Sovitish suyuqligi harorati datchigi,
2. Kiritish quvuridagi havo harorati datchigi,
3. Kiritish quvuridagi havo bosimi datchigi,
4. Ishlatilgan gazlar tarkibidagi kislorod datchigi,
5. Drossel zaslonskasi datchigi,
6. Avtomobil tezligi datchigi,
7. Konditsionerni ulash datchigi,
8. Uchqun berishni ilgarilatish datchigi,
9. Nosozliklar datchigi,
10. Starterni ulash datchigi,
11. Tirsakli valning holati datchigi,
12. Uzatmalar qutisini ulash datchigi,
13. Elektrotizimdagи kuchlanish datchigi,
14. Transmissiyada uzatishlarni ulash datchigi,
15. Yonilg‘i nasosining klemmalaridagi kuchlanish datchigi,
16. Benzinning oktan soni datchigi.


Turbokompressor.

Benzinli va dizel dvigatellarni ularning kiritish strategiyasi bo‘yicha tasniflash mumkin, xususan tabiiy kiritish yoki kuchaytirilgan kiritish. Allaqachon ayrilganidek foydali ish va shunday qilib o‘rtacha samarador bosim yonilg‘idagi ximiyaviy energiyaning miqdoriga bog‘liq. Lekin yonish vaqtidagi yongan yonilg‘ining miqdori silindrga kirayotgan xavo massasiga juda bog‘liq, qaysiki to‘g‘ri yonishni ta’minalash uchun zarur. O‘tkan bo‘limlarda tabiiy kiritladigan dvigatellarda qanday qilib xavoning massasi optimallashtirilishi ko‘rsatilgan edi. Xavoning massasi uning xajmi va zichligi bilan aniqlanadi, oxirgisi atmosfera bosimiga va xaydash kamerasi xamda quvurlardagi bosim yo‘qotishlariga bog‘liq.

Undan tashqari drossel pasaytirilgan yuklama sharoitlarida xavoning miqdorini cheklaydi va shunday talab etilgan past quvvatni yetkazib beradi.


Berilgan dvigatelning o‘rtacha samarador bosimini yanada oshirish uchun silindrga kirayotgan xavoning bosimi orttirilishi mumkin. Agar xavo silindr ichiga kiritilishi uchun atmosfera bosimidan yuqori bosimga kuchaytirilsa, shuningdek zichligi oshirilsa, bir siklda ko‘proq yonilg‘i yonishi mumkin, xatto berilgan dvigatel tezligi uchun gaz o‘rtacha tezligi kiritish

porti orqali o'zgarmas qolsa xam. Xavo xajmi xaligacha silindr ish xajmiga bog'liq lekin silindr zaryadni kattraroq zichlikda qabul qilgani uchun, berilgan dvigatel ish xajmi uchun moment va quvvatni oshirish imkoniyati mavjud.



3.6-rasm. Zamonaviy turbokompressorning tuzilishi

1 – podshipniklar korpus; 2 – turbina g'ildiragi; 3 – o'tkazish klapani; 4 – korpus; 5 – moy kanallari; 6 – rotor vali; 7 – podshipnik; 8 – kompressor g'ildiragi; 9 – kompressor korpusi; 10 – o'tkazish klapanining xavo yuritmasi.



3.7-rasm. Turbonadduv tizimi: turbina darcha bilan kompressor.


Kuchaytirilgan kiritish texnologiyasi ko'p yillar avval asosan kirayotgan xavoning bosimi ancha past bo'lgan yuqori balandliklarda dengiz satxidagi sharotini yaratish uchun porshenli dvigatellar uchun yaratilgan. 1970 yillarda bu texnologiya bugungi kundagi transport vositalari dvigatellariga yaqin geometriyaga ega bo'lgan avtomobillarda qo'llanilishi boshlangan va solishtirma quvvatning odatiy qiymati shunday qilib 75 kVt/l gacha erishilgan. O'sha vaqtarda SAAB oddiy ishlab chiqilgan dvigatellarda qulay qo'llay bilgan brend edi.

Chiqayotgan gaz bilan xarakatlantirilgan turbokompressor tizimi 2.7-rasmida ko'rsatilgan. Bu konstruksiyada radial oqimli markazdan qochma kompressor siqilgan xavoni kiritish quvuri ga xaydaydi. Kompressorni xarakatlantirish uchun zarur bo'lgan mexanik energiya chiqayotgan gazdan olinadi, qaysiki u kengayish davomida, markazga intiluvchi radial oqim turbina orqali ichkariga oqadi, shunday qilib uning xarorati va bosimini pasaytiradi. Avtomobilarda turbina va kompressor diametrlari 30-60 mm oraliqda o'zgaradi va shuningdek ularning tezligi 150 000-230 000 ayl/min oralig'ida o'zgaradi va 1.0-1.2 atm kuchaytirilgan bosim ta'minlanadi.

O'zgaruvchan geometriyali turbonadduv

An'anaviy turbonadduv texnologiyalari-ning afzalliklari dize dvigatellarida benzinli dvigatellardagiga nisbatan ko'proq. Dizel dvigatellarida qo'llanilgan ortiqcha xavo miqdori xisobga olinganda, shu narsa ma'lumki turbonadduvlar yonilg'i uzatilishini oshirmsandan xaydash bosimini oshirish evaziga termodynamik samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shunga qaramay turbo sekinlanish effekti mavjud va allaqochon ta'kidlanganidek turbina geometriyasini dvigatel ishslash sharoitlari bilan turbinadan kompressorga beriladigan energiya orasidagi bog'liqlikni aniqlaydi.

Dizel dvigatellari chiqindi gaz xarorati past bo'lgani uchun ushbu muammoni yengadi, qaysiki (VGT) nomi bilan ma'lum bo'lgan o'zgaruvchan geometriyali turbonadduv ishlatish imkonini beradi. Bu konstruksiya shuningdek o'zgaruvchan soploli turbina (VNT) texnologiyalari nomi bilan ma'lum bo'lgan o'zgaruvchan turbina kurakchalarini xarakterlaydi (2.8-rasm).



3.8-rasm. O'zgaruvchan geometriyali turbonadduv (VGT).

b- qisman yuklangan xolati: past yuklama va tezlikda moment optimallashtirish;

b -to'liq yuklama xolati: maksimal ko'rsatikichlar (FIAT).

Benzinli dvigatellardagi chiqindi gazlarning 950 °C gacha yuqori xarorati bunday qurilmalar qo'llashga imkon bermaydi. Bu konstruksiya diffuzor kabi ta'sir etuvchi sozlanuvchi aks ettiruvchi kurakchalar to'plamidan iborat bo'lib u turbinaga kiruvchi gazning doimiy tezligini saqlab turadi. Aynan

rasmida ko'rsatilganidek kurakchalar turbina o'qiga parallel o'q atrofida aylanadi. Dvigatelning past tezliklarida (2.8 a- rasm) ketma-ket ikki kurakcha orasidagi tirqish minimumgacha kamaytiriladi, natijada gazlarning cheklangan oqimiga qaramay kirish maxalliy tezligi ortadi va qo'shimchasiga gaz oqimi turbina kurakchasi atrofiga yo'naltiriladi, shuning bilan kompressorni xarakatlantirish uchun yaxshi richag effektini yuzaga keltiradi.

To'liq yuklama xolatida (2.8 b-rasm) kurakchalar turbinaga ko'proq miqdorda gaz kirishiga imkon beradi. Past richag effekriga qaramay natijaviy moment ortadi. Agar ikki qarama qarshi effektlar yaxshi boshqarilsa va momentning maksimal qiymati cheklangan bo'lsa, chiqindi gaz darcha klapanini ishlatishga xojat qolmaydi. Kurakchalar chiqindi gaz darcha klapani yuritmasi kabi pnevmatik aktuator bilan boshqariladi va EBB tomonidan nazorat qilinadigan pnevmatik signal kurakchalar burchaklarini dvigatel yuklamasiga ko'ra aniqlaydi.

Ishlab bo'lgan gazlarning resirkulyatsiyasi

Dvigatellarning quvvat va tejamkorlik parametrlarini yaxshilash bilan birga, ekologik ko'rsatkichlarini yaxshilash dolzarb muammo hisoblanadi. Bu borada ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqdi. Shularda biri ishlab bo'lgan gazlarni resirkulyatsiya qilish tizimi. Bu tizim yonilg'ini yonish kamerasida yuqori darajada samara bilan yoqish imkonini beradi.

Yonilg'ining yonishidan hosil bo'lgan yonish mahsulotlarining resirkulyatsiya jarayoni natijasida ishlab bo'lgan gazlar dvigatel silindriga qayta kirib, u yerda yonilg'i-havo aralashmasining alangananish va yonish jarayonida yana ishtirok etadi. Shunday qilib, buning natijasida benzin nafaqat to'liq yonadi, balki dvigatelning ishi natijasi bo'lgan zaxarli mahsulotlarning miqdori ham kamayadi.



3.9-rasm. Ishlab bo'lgan gazlarning resirkulyatsiyasi

Zamonaviy dvigatellarda bu tizim, ishchi aralashmaning birlamchi alanganishida yonmay qolgan 25% gacha yonilg'ini tejash imkonini beradi,

resirkulyatsiya tizimisiz bu miqdordagi yonilg'i atmosferaga uchib ketgan bo'lar edi. Demak, ishlab bo'lgan gazlarni resirkulyatsiya qilish tizimi dvigatel tejamkorligini oshiradi, zaxarli gazlar miqdorini (NO_x) keskin kamaytiradi. Biroq tizim dvigatelning quvvat ko'rsatkichlarini pasaytiradi (3.9-rasm).

Elektron o't oldirish tizimi

Avtomobil dvigatellarining rivojlanishidagi muxim o'rinni o't oldirish tizimida elektronikani qo'llanilishi tutadi. Uzoq vaqtlar davomida avtomobil dvigatellarning o't oldirish tizimlarida kontaktli konstruksiya qo'llanilib kelgan. Biroq bunday konstruksiyaga ega dvigatelning o't oldirish ilgariligini to'g'ri ta'mirlashi barcha agregatning samarali ishlashiga bog'liq bo'ladi.



3.10-rasm. Kontaktli o't oldirish tizimi elementlari

Kontaktli o't oldirishning o'rniga kelgan elektronika, yonilg'i aralash-masini alangalatish momentini aniq o'rnatib, uni porshen yo'liga nisbatan ilgari yonib ketishini oldini oldi. Tizim dvigatelning barcha ish rejimla-rida optimal bo'lgan o't oldirish ilgariligini ta'minlagan holda o'zining ishonchli ishlashini namoyon qildi. Bundan tashqari, o't oldirish svechalari-ning sovuqda o't oldirish sifati yaxshilandi va hizmat muddati oshdi.

Tizimning qo'llanilishi, kontaktli o't oldirish tizimidagi aniqligi past bo'lgan o't oldirish momenti tufayli sarf bo'ladigan minglab tonna qo'shimcha yonilg'ini tejab qolish imkonini berdi.

Kambag'al yonilg'i aralashmasining qo'llanilishi

Benzinli dvigatellarning samarasini oshirishning yana bir usuli bu, kambag'al yonilg'i aralashmasidan foydalanish hisoblanadi. Muxandislari birlamchi yonilg'i-havo aralashmasi nisbatini o'zgartiririb ko'rishdi. O'tgan asrning 70 yillarida Honda, Mitsubishi, Nissan va ishlab chiqaruvchilar o'zlarining dvigatellarida shunday texnologiyani qo'llay boshladilar.

Bunday texnologiyaning qo'llanilishi murakkab va qimmat bo'lgan katalitik neytralizatorlarni talab etganligi uchun, 90 yillarning boshiga kelib to'xtatib qo'yildi (3.11-rasm).

Biroq hozirgi kunga kelib, texnika va texnologiyalar rivoji, dvigateli elektron boshqaruv tizimlarining imkoniyatlari tufayli, bu tizim yana dvigatelsozlikda qo'llanila boshladi.



3.11-rasm. Kambag‘al aralashmada ishlaydigan ta’minlash tizimi

Yonilg‘ini elektron purkash

Hozirgi kunga kelib, deyarli barcha avtomobil dvigatellari yonilg‘ini purkashining elektron tizimi bilan ishlab chiqarilmoqdi. O‘zining mexanik analoglari bilan solishtirganda yonilg‘ini purkashning elektron tizimi, yonish kamerasiga uzatilayotgan aralashmaning miqdorini sezilarli ravishda aniqroq nazorat qilish imkonini beradi.

Dastlabki texnologiyalarga ko‘ra, bir nuqtali purkash (Monotronik) nazarda tutilgan edi, hozirda uning o‘rniga ko‘p nuqtali hattoki, ko‘p portli purkash tizimlari qo‘llanilib keldi.

Biroq, ko‘p portli purkash bugungi kunga kelib deyarli qo‘llanilmayapti, chunki uning konstruksiyasi murakkab va narxi qimmat (3.12-rasm).





3.12-rasm. Injektorlar

Bugungi kunda injektorli dvigatellarning konstruksiyasida lyambda-zond deb nomlanuvchi kislород datchiklari ham qo‘llanilmoqda. Bunday datchiklar ishlab bo‘lgan gazlarni chiqarish tizimiga о‘rnatilib, har bir siklda yonilg‘ining yonish samaradaorligini nazorat qilish vazifasini bajaradi. Ko‘pgina avtomobillarda ikkita va undan orriq kislород datchiklari joylashtiriladi, biri katalitik neytralizatorдан oldin va qolganlari undan keyin о‘rnatiladi. Lyambda-zondlar, ularning barcha plyuslari bilan birga sezilarli kamchilikka ega – bu qurilmalar yonilg‘ining sifatiga juda sezgir hisoblanib, sifati past bo‘lgan benzin ishlatilganda bir necha ming kilometrdan keyin ishdan chiqishi mumkin.

3. Yuz yil davomida dvigatelsozlik tahlili

Шартасири	Демпн шартасири датага 1913 й.	Сервис датасы 1992 й.	Зекемелді шартасы 2012 й.
Демпн түри	4-цилиндр, 4- лакта фазалы	4-цилиндр, 4- таптағанда	4-цилиндр, 4- лакта, өзгөнші
Арнайтын орталықтас	Коффератор	Күлпүстөн турат	Безжет түрлөт
Шартасынан көлемдер	4	4	4
Шартасынан көлемдер	160-34	96,26	146,326
Демпн шартасынан шартасы, мк	1,7	1	1,1
Макс. арнайы, кг	4441	1975	2198
Сындаралу	1,1	10%	1%
Макс. күнделіктік шартасынан көлем, мк	60-52, 2800	110-120, 6000	114-135, 5000
Макс. күнделіктік шартасынан көлем, мк'	140, 1700	195, 4500	210, 3300
Макс. күнделіктік шартасынан көлем, мк	400	212	4,750
Макс. күнделіктік шартасынан көлем, мк	20-40	13-14	6,5-10,9
Хатын ажыратылғанда, бар	1,2	13,4	12,7
Демпн шартасынан шартасы, мк	16	77,1	80
Шартасынан шартасынан босимлар	Нормалт- термалт	US-43, Евро-5 шартасы	Евро-5
Демпн көлемдер	120	120	112
Одуд 100 күнделіктік шартасынан шартасы, мк	20	8,5	9,8
Макс. күнделіктік шартасы, мк	100	225	210



3.13-rasm. Dvigatellarning quvvati va silindrдаги босимлари egri chiziqlarini solishtirish

Jadvalda 1913 yilda ishlab chiqarilgan yuqori quvvatli poyga avtomobilining dvigateli bilan 1992 va 2015 yillarda ishlab chiqarilgan oddiy seriyali yengil avtromobilarning dvigatellari o‘zaro solishtirilgan. Bu dvigatellarning orasida dvigatelsozlikning deyarli 100 yillik rivojlanishi kuzatish mumkin. Bu tahlilning o‘ziga xosligi shundaki, barcha uchchala dvigatelning ishlab chiqaruvchisi bir va ular bir hil ish prinsipida ishlaydi (2.13-rasm).

4. Dvigatellarning rivojlanish istiqbollari.

Bir necha o‘n yillardan buyon ichki yonuv dvigatellari isnoniyat foydasiga ishlab kelmoqda. Dvigatellarni takomillashtirish doimiy jarayondir. Konstruktorlar ba’zan quvvatni oshirish uchun kurashadi, ba’zan dvigatel massasini kamaytirishadi. Neft narxini ko‘tarilib ketishi va ekologik me’yorlarning kuchayishi kabi omillar dvigatelsozlikning rivojlanishiga ta’sir o‘tkazadi. Shu qiyinchiliklarga qaramasdan, ichki yonuv dvigatellari avtobillar uchun asosiy energiya manbai hisoblanadi (3.14-rasm).



3.14-rasm. Zamonaviy IYoD

Oxirgi vaqtarda an’anaviy dvigatellarni takomillashtirish uchun ko‘p yangi ishlanmalar paydo bo‘ldi. Ulardan ba’zilari tadbiq qilinish bosqichida turibdi, boshqa yangiliklar esa faqat tajriba namunasi ko‘rinishida mavjud. Biroq biroz vaqt o‘tib bu innovatsiyalarning ham bir qismi yangi mashinalarda qo‘llanila boshlaydi. Quyida biz dvigatelsozlikning istiqbolli yo‘nalishla-rini tahlil qilamiz. Ulardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz.

O‘t oldirish svechalarini o‘rniga lazerlar

Bugungi kunda odatiy o‘t oldirish svechalarini lazer qurilmalariga almashtirishga yo‘llangan ishlanmalar mavjud. An’anaviy svechalar bir kamchilikka ega. Ular tarkibida oz konsentratsiyadagi yonilg‘i va ko‘p miqdordagi havo bo‘lgan yonilg‘i aralashmasini o‘t oldirishga qodir quvvatga ega uchqunni bera olmaydi. Quvvatni oshirish elektrodlarni tez ishdan chiqishiga olib keldi. Lazerlarni qo‘llash kambag‘al yonilg‘i aralashmasini alangalatish uchun juda istiqbolli hisoblanmoqda (2.15-rasm).


Lazerli svechalarni afzalliklariga quvvatni o'zgartirish va o't oldirish burchagini rostlash imkoniyatini takidlab o'tish lozim. Bu birdaniga nafaqat dvigatel quvvatini oshirish, balki yonish jarayonini yanada samarali qilishga imkon beradi. Birinchi keramik lazer qurilmalarini yaponiyalik muhandislar ishlab chiqqan. Ular 9 mm diametrغا ega, bu avtomobil dvigatellarining barcha turlariga mos keladi. Yangilik kuch agregatlarini sezilarli o'zgartirishni talab etmaydi.



3.15-rasm. Elektrodli va lazerli o't oldirish svechalari.

Innovatsion rotor dvigatellari

Yaqin kelajakda benzinli dvigatellardan porshenlar, taqsimlash vallari, klapamlari tushib qolishi mumkin. Michigan universiteti olimlari avtomobil dvigatelining prinsipial yangi konstruksiyasini yaratish ustida ish olib borishmoqda (2.16-rasm).



3.16-rasm. Rotorli dvigatel

Kuch agregati energiyani harakatni tutib turuvchi portlovchi to'lqinlar ta'siri ostida qabul qiladi. Yangi qurilmaning asosiy detallaridan biri korpusida radial kanallari mavjud rotor hisoblanadi. Rotor tez aylanganda yonilg'i aralashmasi kanallardan o'tib, bir zumda bo'sh bo'lmalarni to'ldiradi. Yonuvchi aralashma tezda siqilib, keyingi jarayon – yonish boshlanadi va ishlab

Scuderi dvigatelining FIKni oshirish, undagi issiqlikni 2 qismga ajratish orqali amalga oshirildi. Odatiy to‘rt taktli dvigatellarda birta muammo xali yechimini topmagan edi. Gap shundaki, turli taktlar ma’lum harorat diapazonlarida yaxshi ishlaydi. Shuning uchun olimlar dvigateli ikkita bo‘lmaga ajratib ular orasiga radiator joylashtirishga qaror qilishdi. Dvigatelning ishi quyidagi sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. Sovuq silindrлarda yonilg‘i aralashmasini kiritish va uni siqish amalga oshiriladi. Shunday qilib, sovuq sharoitda maksimal samaraga erishiladi. Yonish jarayoni va gazlarni chiqarish issiq silindrda sodir bo‘ladi. Hozircha taklif etilayotgan sxema 20%gacha yonilg‘ini tejash imkonini beradi. Biroq olimlar bu turdagи dvigatel usti ishlab tejamkorlikni 50%ga oshirishni rejalashtirmoqdalar.

EcoMotorsning OPOC oppozit dvigatellari

Bir qancha avtomobil ishlab chiqaruvchilari o‘zlarining mashinalarini oppozit dvigatellari bilan jihozlamoqdalar. Muxandislar bunday konstruksiyaning ustidagi ishlarni hali ham olib borishmoqda



3.19-rasm. OPOC oppozit dvigatellari

Ma’lumki, oppozit dvigatelda silindrлar gorizontal joylashgan bo‘lib, porshenlar bir biriga qarama-qarshi harakatlanadi. EcoMotors konstruktorlari har bir silindrغا ikkitadan porshen joylashtirganlar, ular bir biriga yo‘naltilrilgan. Tirsakli val silindrлar orasida joylashgan bo‘lib, bitta silindrдagi porshenlarni siljirish uchun turli uzunlikdagi shatunlar qo‘llaniladi. Porshen guruhining bunday joylashishi dvigatelning massasini kamaytirishga imkon berdi, chunki bunda qilindrlar blokiga hojat qolmaydi. Oppozit agregatdagi porshenlarning yo‘li ham an’anaviy benzinli dvigatellarga nisbatan ancha kichik. EcoMotors muhandislarining fikricha OPOC dvigateli bilan jixozlangan avtomobil 100 km masofaga taxminan 2 l benzin iste’mol qiladi (2.19-rasm).

Nazorat savollari

1. Bug‘ dvigatelining ishlashini tushuntiring.
2. Ichki yonuv dvigatellari qachon paydo bo‘lgan?
3. To‘rt taktli dvigatelning ishlash prinsipi.
4. Ikki taktli dvigatelning ishlash prinsipi.
5. Rotor-porshenli dvigatelning ishlash prinsipi.

6. Gazturbinali dvigatelning ishlash prinsipi.
7. Mono-Motronic tizimining afzalliklari.
8. Injektorning karbyuratorga nisbatan afzalliklari.
9. Injektorli ta'minlash tizimida qanday datchiklar mavjud?
10. "Common Rail" yoqilg'ini purkash tizimining tuzilishi.
11. "Common Rail" yoqilg'ini purkash tizimining ishlashi.
12. "Common Rail" tizimida qanday datchiklar mavjud?
13. Dvigatellardagi turbokompressorning vazifasi.
14. Dvigatellardagi interkulerning vazifasi.
15. Ishlab bo'lgan gazlarni resirkulyatsiyasi nima?
16. Elektron o't oldirish tizimining afzalliklari.
17. Kambag'al yonilg'i aralashmasining qo'llanilish shartlari.
18. Lazerli svechalarining afzalliklari.
19. Scuderi dvigatelining ishlash prinsipi.
20. OPOC oppozit dvigatellarining afzalliklari.

4-mavzu. Ilashish muftasi konstruksiyasini takomillashtirish tendensiyasi. Kuch uzatmasi konstruksiyasini takomillashtirish tendensiyasi.


Reja:

1. Mexanik transmissiyalar
2. Avtomat transmissiyalar.
3. Pog'onasiz uzatmalar

Avtomobilning transmissiyasi ikkita funksiyani bajaradi, u burovchi momentni dvigateldan avtomobilning yetakchi g'ildiraklariga uzatadi, shuningdek uning karraligini va yo'nalishini o'zgartiradi. Dizellarning tirsakli vali aylanishlar chastotasi 1000... 2600 ayl/min, karbyuratorli dvigatellarniki - 1000...6000 ayl/min, ya'ni nisbat 2..6 baravar, avtomobillarning harakat tezligi o'zgarish diapazoni - 5...200 km/s (va undan ko'p), ya'ni nisbat 30...40 baravarni tashkil etadi. Tirsakli val aylanishlar chastotasi va harakat tezligining bunday munosabatini transmissiya ta'minlaydi. Shuningdek burovchi momentni uzatishda transmissiya uni alohida g'ildiraklar o'rtaida qayta taqsimlaydi.

Transmissiyalarning klassifikatsiyasi. Energiyani uzatish usuliga ko'ra transmissiyalar mexanik, gidrohajmiy, elektrik va kombinatsiyalashgan (gidromexanik, elektromexanik) turlarga, uzatish sonini o'zgartirish xarakte-riga ko'ra – pog'onali va pog'onasiz, uzatish sonlarini boshqarish usuliga ko'ra – avtomatik va noavtomatik, kuch oqimlari soniga ko'ra – bir va ikki oqimli turlarga bo'linadi. Pog'onali mexanik transmissiyalar uzatmalarni almashti-rish qo'lida yoki avtomatik boshqariladigan bo'ladi.

Robotlashtirilgan uzatmalar qutisi tuzilishi va ishlash prinsipi bo'yicha standart mexanik transmissiyaning texnik xarakteristikalari bilan ko'p jixatdan mos keladi. U ham uchta asosiy valga ega (yetaklanuvchi, yetakchi va oraliq), shesternyalar ham uzatish soni ham o'xshash. «Robot» atamasi, barcha jarayonlarni maxsus moslamalar - «servoyuritmalar» va «aktuuatorlar» boshqarib, ular zarur vaqtida uzatmani ulash va uzish vazifasini bajaradi. Bu jarayonlarni boshqarish maxsus elektron blok yordamida amalaga oshirilib, u boshqaruv komandasini reduktor yoki gidroyuritmaga ega bo'lgan elektrosvigatelga beradi (3.5-rasm).



4.2-rasm. Avtomatik boshqariladigan mexanik uzatmalar qutisi

Robotlashtirilgan uzatmalar qutisi bilan jixozlangan avtomobil xaydovchisi transport vositasi kompyuterga ishongan holda avtomatik boshqarishni topshirishi, yoki uzatmalarni almashtirish uchun rul ostiga joylashtirilgan richak yoki yaproqsimon selektordan foydalanib qo'lda boshqarishi mumkin.

Robotlashtirilgan uzatmalar qutisining kamchiliklari:

- murakkab sharoitlarda harakatlanganda ilashma ravon boshqarilmasisligi, chunki uzatmalarning tez-tez almashtirilishi noqulaylik tug'diradi;
- bir uzatmadan boshqasiga o'tishda yetakchi va yetaklanuvchi disklarning uzoq vaqt davomida ajralib turishi dvigatelning moslashuvchanligini kamaytiradi va mashina tezligining biroz pasayishiga olib keladi.

Ikkita ilashma bilan jihozlangan robotlashtirilgan uzatmalar qutisi

Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida robotlashtirilgan uzatmalar qutisi ikkita ilashma bilan jixozlandi.



4.3-rasm. Ikkita ilashma bilan jihozlangan robotlashtirilgan uzatmalar qutisi

Bunday konstruksiyaning ishlatilishi agregatning imkoniyatlarini sezilarli oshirdi, ya'ni hozirda ishlab turgan uzatma bilan bir qatorda keyingi

ulanishi kerak bo‘lgan uzatmani tanlab, oldindan uni ulab qo‘yish imkoniyati mavjud (4.3-rasm).

Buning natijasida bir uzatmadan boshqasiga o‘tish vaqtি sezilarli qiskaradi, avtomobilning manevrchanligi ortadi va uni boshqarish ancha qulay bo‘ladi.

Tiptronik

«Tiptronik» atamasi uzatmalar qutisining qandaydir bir turi emas, balki uzatmalar qutisining konstruksiyasiga qo‘sishma qurilma o‘rnatish orqali uning funksional imkoniyati paydo bo‘lishiga nisbatan ishlatalishi to‘g‘ri bo‘ladi. Avtotransportlarda qo‘llaniladigan avtomatik uzatmalar qutisining standart shakli ba’zi dinamik parametrlarni nazorat qilish imkonini bermaydi, masalan, kuchli (tezkor) tezlanish, dvigatel bilan tormozlash yoki past uzatmaga majburan o‘tish va boshq. Bu vaziyatlarda, «tiptronik» funksiyasi bu muammolarni richak selektor yordamida elektron boshqaruv bilan bog‘langan tezlikni yordamchi rostlash tizimi orqali hal etadi (4.4-rasm).



4.4-rasm. Tiptronik funksiyali AUQni boshqarish richagi

3. Pog‘onasiz uzatmalar

Haydovchiga haydash rejimini faqat ikkita pedal (gaz va tormoz) yordamida boshqarish imkonini beradigan avtomatik uzatma uzatmalar qutisiga ega bo‘lishi yoki bo‘imasligi mumkin. Ikkinci tur gidrostatik va elektr uzatishni o‘z ichiga oladi, bu esa ma’lum bir diapazonda har qanday uzatishlar sonini olish imkonini beradi.

Keyingi paytda ponasimon tasmali variator asosidagi uzatmalar qutisi amalda qo‘llanilmoqda (Xonda, Subaru).

1995 yili nemislarning ZF kompaniyasi variator asosidagi uzatmalar qutisini yaratdilar. 1997 yili esa AUDI kompaniyasi Multitronik varia-torli uzatmalar qutisini yaratdi. Unda 6 pog‘onali mexanik uzatmalar qutisi ham o‘rnatilgan bo‘lib, haydovchilardagi psixologik to‘sinqi yengishga yordam beradi. Bu to‘sinq shundan iboratki, haydovchi mexanik uzatmalar qurili avtomobilda tezlanish payrida dvigatel tirsakli valining aylanishlar soni ortishi bilan avtomobil tezligining orrishiga o‘rganib qolgan. Variatorda esa dvigatel tirsakli valining bir xil burchak tezligida avtomobilning tezligi ortib boradi. Shu narsa haydovchi uchun noqulay hissiyotni uyg‘otadi.

Variator

Transmissiyaning variatorli turi pog‘onasiz hisoblanadi. Bunday uzatmalar qutisi burovchi momentni ravon uzatish imkoniyatiga ega (3.9-rasm).


Mohiyati jixatidan variator pog'onasiz «avtomat» bo'lib, u doimiy uzatish soniga ega emas.

Avtomatik transmissiya agregati sifatida variator quyidagi afzallikkлага ega:


- uning konstruksiyasida shesternya va vallar mavjud emas, chunki burovchi momentning ma'lum qiymatini tizimli ravishda dvigateli transmissiya dan uzgan holda o'zgartirish talab etilmaydi;
- unda ma'lum uzatish soniga ega bo'lgan uzatmaning bosqichlari yo'q;
- variator orqali yetakchi valga uzatilayotgan burovchi moment konussimon shkivlarlag nisbatan ponasimon tasma qanday joylashganiga qarab doimo o'zgarib turadi;
- variator bilan jixozlangan transmissiyaning yurish ravonligi va yumshoqligi deyarli ideal.

Variatorlarning bu yutuqlari avtomobilsozlikning revolyusion konstruksiyasi bo'lishiga qaramay ular, hozirda kichik quvvatli avtomobillarda qo'llanilmoqda. Ularning asosiy kamchiliklari – resursining kamligi (taxminan 200 ming km gacha) va hizmat ko'rsatishning qimmatligi.

Toroidlli variatorlar. Bunday variatorlarda ikkita sferik g'ildi-raklar orasida rolik qisiladi. Rolikning o'qi sferik g'ildiraklarga nisbatan ularning o'qiga ko'ndalang tekislikda o'zgartirilsa uzatilayotgan burovchi momentning qiymati o'zgaradi. Burovchi momentni ishonchli ravishda uzatish uchun rolik sferik g'ildiraklar orasida kuchli qisilishi kerak. Qisish kuchi 10 tonnnagacha boradi. Orqaga yurish uchun planetar mexanizm qo'llanilgan (NISSAN).



4.5-rasm. Variatorli avtomatik uzatmalar qutisi



4.6-rasm. Gidromexanik uzatmalar qutisi

2. Pog‘onalarni almashririshda quvvat oqimida tanaffus yo‘qligi sababli yo‘lsiz sharoitida avtomobilning o‘tag‘onligi oshadi.

3. Gidrotransformatorning dinamik yuklarni kamaytirish qobiliyati tufayli dvigatel va transmissiya agregatlarining resursi oshadi.

-минтақавий, тармоқлараро(автомобил транспорти ҳаракатдаги таркибига техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш хақидаги Низом, техник эксплуатация қоидалари);

-тармоқ ва гурухлар(корхоналар гурухи, бирлашмалар, ҳолдинг);


-тармоқ ичи ва хўжаликлар (корхона ёки корхоналарда қўлланиладиган меёrlар, стандартлар, талаблар ва бошқалар);

Низомнинг I қисмидаги русум намояндаси учун берилган, бошқа русумлар мөър шунга ўхшатиб олинади.

Низомнинг II қисмида муайян автомобиллар учун меъёр берилган, аммо уларнинг сони кўп эмас, хорижий автомобиллар учун эса, бундай меъёrlар жуда кам.

Бузилмасликнинг йўл қўйилган даражаси бўйича даврийликни аниқлаш.

Бу усулда шундай мақбул даврийлик аниқланадики, унинг чегарасида детал, агрегат ёки автомобилнинг йўл қўйиладиган бузилмаслик даражаси таъминланади. (4.3 - расм).



4.3 –расм. ТХК даврийлигини бузилмасликнинг йўл қўйилган даражаси бўйича аниқлаш.

бүрдэл

- а) бузилиш эҳтимолликлари тақсимотининг зичлиги;
б) бузилиш ва бузилмасдан ишлаш эҳтимоллиги графиги;
Е – бузилиш эҳтимодлиги;

R_{pa} – рұхсат этилған бүзилмай ишлаш әхтимоллигі.

— бузилишгача бўлган ишлаш давомийлиги

ℓ_0 – ТХК даврийлиги;

X_γ - гамма фоизли ресурс:

х-бузилишгача бўлган ўртacha ишлаш давомийлиги.

Р-бузилмай ишлаш эҳтимоллиги қўйдагича

$$P(x_i \geq t_{\alpha}) = R_{x_i} = r_{\alpha}, \quad \text{where } t_{\alpha} = t_r. \quad (4.2)$$

Харакат хавфизлигини таъминловчи агрегат ва механизмлар учун -рухсат этилган бузилмасдан ишлаш эҳтимоллиги

$$R_{\text{c}} = 0.90 \dots 0.98 (r = 90 \dots 98\%)$$

қолган агрегат ва механизмлар учун—

$$R_{\perp} = 0.85 \dots 0.90 (\gamma = 85 \dots 90\%)$$


Шундай топилган ТХК даврийлиги бир бузилишга түғри келган ишлаш давомийлигидан анча кам(4.3 -расм) ва у билан қуидагича боғланган:



Бу ерда β_n – мақбул даврийлик коэффициенти

Мақбул даврийлик коэффициенти бир бузилишга түғри келган ишлаш давомийлиги (ℓ) унинг вариацияси (v) ва рухсат этилган бузилмасдан ишлаш эхтимоллиги $P(L)=R_{p3}$ га боғлиқ.

Мисол учун 4.4 – расмда иккита (1 ва 2) элементнинг бузилишигача ишлаш давомийликлари тақсимоти келтирилган.



4.4 – расм. Ишлаш давомийлиги вариациясининг мақбул даврийлика таъсири.

Уларнинг ўртача ишлаш давомийликлари тенг, аммо вариациялари ҳар ҳил $v_1 < v_2$.

Мақбул даврийлик коэффициентининг қийматлари 4.2.1- жадвалда келтирилган.

4.2.1 – жадвал

Мақбул даврийлик коэффициенти- β

R_{p3}	Нижни давомийлигинин вариация коэффициенти			
	0,1	0,4	0,6	0,8
0,94	0,80	0,55	0,40	0,24
0,49	0,67	0,17	0,10	0,10


Шунинг учун техник эксплуатациянинг асосий вазифаларидан бири технологик ва ташкилий тадбирлар асосида бузилишгача бўлган ишлаш давомийлиги вариациясини камайтиришдан иборат. Амалиётда, детал, тизим ёки бирикманинг бузилмасдан ишлаш эхтимоллиги графиги аниқланган бўлса, ундан фойдаланиб, мақбул даврийлик коэффициентини аниқлаш мумкин.

$$\beta = \frac{\ell_o}{x}$$

Бу усулда куч узатмайдиган маҳкамлаш бирикмалари, электр ўтказгачлар, суюқлик ва ҳаво магистраллари учун ТХК нинг мақбул даврийлигини аниқлаштирун мумкин.

Техник ҳолат параметрининг йўл қўйилган ўзгариши ва қонунияти бўйича даврийликни аниқлаш.

Автомобил, агрегат ёки деталлар техник ҳолатининг ишланма бўйича ўзгариш параметри графигидан максимал(1), ўрта(2) ва минимал(3) техник ҳолати параметри ўзгариши жадаллиги хар хил бўлган учта детални ажратиб оламиз. (4.5-расм).



4.5-расм. Техник ҳолат параметри ўзгаришининг йўл қўйилган қиймати ва қонунияти бўйича даврийликни аниқлаш.


бу ерда: Y – техник ҳолат параметри; Y_b – бошланғич; Y_{p_2} – рухсат этилган; F – бузилиш эҳтимоллиги; F_{p_2} – қалтис ҳолатдаги рухсат этилган бузилиш эҳтимоллиги; ℓ_{txk} – ТХК даврийлиги.

Мақбул ТХК даврийлиги қуйидагида аниқланады



бу ерда: а— техник ҳолат параметрининг ўртача ўзгариш жадаллиги (4.5-расмдаги 2 детал учун);

μ - техник ҳолат параметри ўзгаришининг максимал жадаллиги коэффициенти;



4.6 – расм. Вариация коэффициенти v нинг максимал йўл қўйилган жадаллик коэффициенти μ га таъсири

μ - нинг қиймати(4.6 -расм) қўйидагиларга боғлиқ:

- бузилишгача ишлаш давомийлиги вариацияси;
- бузилмай ишлаш эҳтимоллигининг берилган қиймати;
- ишлаш давомийлигининг тақсимот қонуни тури.

Нормал тақсимланиш қонуни учун

$$\mu = 1 + t_{p_0} V_0 \quad (4.5)$$

бу ерда: $t_{p_0} = (a_{p_0} - a)/\sigma$ – ишонилган эҳтимоллик даражасига мос келадиган меъёрлаштирилган оғишлик.

Вейбулл-Гнеденко тақсимланиш қонуни учун

$$\mu = \frac{-m \sqrt{-\ln(1 - R_{p_0})}}{\Gamma(1 + 1/m)}, \quad (4.6)$$

бу ерда: Г – гамма функция;

m – тақсимланиш параметри.

Вариация коэффициенти ва рухсат этилган бузилмасдан ишлаш эҳтимоллиги қанчалик катта бўлса, максимал рухсат этилган жадаллик коэффициенти шунча катта бўлади ва ТХК даврийлиги қисқаради.

Мисол: Тормоз механизмини назорат қилиш ва созлаш мақбул даврийлиги аниқлансин, қўйидагилар берилган:

$R_{1p_0}=0,95$ ($\gamma=95\%$),

$V_6=0,25$ мм

$V_{p_0}=1$ мм



$$\alpha = 0,05 \text{ км}/1000 \text{ км}$$

$$\nu_1 = 0,3$$

$$t_{\mu} = 1,65 \quad t_{\mu_1} = 0$$

Берил:

$$1) \mu = 1 + \nu_1 \cdot t_{\mu} = 1 + 0,3 \cdot 1,65 = 1,5$$

$$t_{\max} = t_{\min} = \frac{Y_{\mu} - Y_0}{\mu \cdot a} = \frac{1,0 - 0,25}{1,5 \cdot 0,05} = 11,000 \text{ км}$$

2) Вариант коэффициенти ν_1 и 0,15 бўлиш

$$\mu = 1 + \nu_1 \cdot t_{\mu} = 1 + 0,5 \cdot 1,65 = 1,25$$

$$t_{\max} = t_{\min} = \frac{Y_{\mu} - Y_0}{\mu \cdot a} = \frac{1 - 0,25}{1,25 \cdot 0,05} = 12,000 \text{ км}$$

3) Ўртча ресурс ($R_{\mu} = 0,5 \quad t_{\mu} = 0$)

$$\mu = 1 + \nu_1 \cdot t_{\mu} = 1,0$$

$$t_{\max} = t_{\min} = \frac{Y_{\mu} - Y_0}{\mu \cdot a} = \frac{1,0 - 0,25}{0,5} = 15,000 \text{ км}$$

Бу усулдан секин-аста бузиладиган бирикмалардан ва деталлардан ташкил топадиган, созланадиган механизмлар (тормоз, илашиш муфтаси, олд ғилдирак ўрнатиш бурчаклари, клапанлар механизми ва бошқалар) учун ТХК нинг мақбул даврийлигини аниқлашда фойдаланилади.

Техник-иқтисодий усул

Техник-иқтисодий усул ТХК ва таъмирлашга кетадиган солиштирма харажатлар йиғиндиси ва йиғиндининг кам қийматига тўғри келадиган мақбул даврийликни аниқлашга асосланган.

ТХК бўйича солиштирма харажатлар ($C_{\text{тхк}}$):

$$C_{\text{тхк}} = \frac{d}{L} \cdot \text{сўм/миннг км},$$

бу ерда: d — ТХК амалини бажариш қиймати, сўм;

L — ТХК даврийлиги, минг км.

ТХК даврийлиги ошганда, бир марталик ТХК харажати ўзгармайди ёки

озгина ортади, солиширима харажатлар эса қисқаради. ТХК даврийли ошиши детал ёки агрегат ресурсининг қисқаришига, бузилишлар сонин оптишига, таъмирлаш солиширима харажатининг ошишига олиб келади.

Жорий таъмирлаш бўйича солиширима харажатлар ($C_{жт}$)


$$C_{жт} = \frac{d}{L_{жт}} \quad (4.7)$$

бу ерда $L_{жт}$ – детал ёки агрегатнинг таъмирлашгача бўлган ресурси, минг км; c – шу ресурс давомида таъмирга кетадиган харажатлар, сўм.

ТХК ва ЖТ бўйича умумий солиширима харажатларнинг масофа (ℓ) бўйича ўзгариши.

$$C_{\Sigma} = C_{тхк} + C_{жт} = \frac{d}{L_{тхк}} + \frac{d}{L_{жт}} \quad (4.8)$$

Умумий солиширима харажатларнинг минимум қийматига ТХКнинг мақбул даврийлиги мос келади. (4.7 -расм)



4.7-расм. ТХК даврийлигига боғлиқ ҳолда солиширима харажатлар ($C_{тхк}$, $C_{жт}$, C_{Σ}) нинг ўзгариши

Техник хизмат қўрсатиш даврийлигига боғлиқ ҳолда солиширима харажатлар ўзгаришини таҳлил қилиб, ТХК нинг энг мақбул даврийлиги (ℓ_0) ни аниқлаш мумкин.

$$\ell_0 = \sqrt{L_{тхк} \cdot \frac{d}{c}} \quad (4.9)$$

Мисол: Агар ТХК амалларини бажариш учун сарфланадиган харажатлар $d=12,8$ минг сўм; $L_{жт}=5$ минг км масофа давомида таъмирлаш учун сарфланадиган харажатлар $c=4$ минг сўмни ташкил этса, мақбул ТХК даврийлигини аниқланг:

$$\ell_0 = \sqrt{L_{тхк} \cdot \frac{d}{c}} = \sqrt{5 \cdot \frac{12,8}{4}} = 4 \text{ минг км.}$$

График усулда ҳам ТХК масофасининг бирнеча қийматларидағи солиширима харажатлар қийматини аниқлаб, умумий солиширима харажатлар минимумига тўғри келган мақбул ТХК даврийлигини аниқлаш мумкин. Бу усулдан фойдаланиб бир хил шароитда ишлайдиган автомобиллар гурӯҳи



бўйича (мойларни, фильтрларни алмаштириш, илашиш, механизмларини созлаш) ТХК даврийлигини аниқлаш мумкин.

Иқтисодий– эҳтимоллик усули

Бу усул олдинги усулларни умумлаштиради, эҳтимоллик ва иқтисодий омилларни ҳисобга олади ҳамда автомобил иш қобилиятини ушлаб туриш ва тиклашда хар хил стратегия ва тактикаларни таққослаш имконини беради.

II стратегия-таъмир стратегияси(C_{II}) бўлиб, носозлик вужудга келганда, зарурат бўйича амалга оширилади. Солиштирма харажатлар:

$$C_{II} = \frac{c}{\sum_{i=1}^n x_i f_i} \quad (4.10)$$

I стратегия-профилактика стратегияси бўлиб, буюм чегаравий ҳолатига етгунча бузилиш ва носозоликлардан огоҳлантириларида ва иш қобилияти тикланади.

Бу стратегик огоҳлантирувчи ҳолдаги ТХК икки тактикада амалга оширилиши мумкин:

- ишлаш давомийлиги бўйича(C_{I-I});
- техник ҳолати бўйича(C_{I-II}).

Бузилишнинг олдини олиш ва уни бартараф этиш солиштирма харажатларнинг мақбул даврийликдаги қиймати

$$C_{I-II} = \frac{cF_0 + dR_0}{c_F F_0 + c_R R_0} \quad (4.11)$$

Бу ордук $cF_0 + dR_0$ – ТХК ва Т амалларини бетондийнин ўртаси ўзимга шартнордланадиган;

$c_F F_0 + c_R R_0$ – ТХК ва Т амалларини ўртаси ўзимга шартнордланадиган;

R_0 – бузилишдан инсан оғизашини;


F_0 – инцидентни ўзимнинг бузилишни;

c – бузилишини туташни шайнати;

d – ТХК инцидентни бир мартабада шайнати;

ℓ_0 – мақбул даврийлик.

Профилактиканинг I-I тактикаси билан ТХК ва ЖТ нинг солиштирма харажатлар йифиндиси ўртасидаги боғлиқликни кўрсатувчи профилактик амаллар картасини тузамиз(4.8 - расм).



4.8 – расм. Профилактик амал картаси

А – минтақасида $C_{I-I} > C_{II}$

Бу элемент учун бузилишнинг олдини олиш мақбул эмас, уни таъмирлаш керак

Б – минтақасида $C_{I-I} < C_{II}$

Иқтисодий кўрсаткичлар бўйича профилактик стратегия (I-I) таъмир (II) дан афзал.

В – минтақасида профилактик стратегия нисбий турғунликка эга бўлиб, унда амалдаги даврийликнинг ℓ^{I_0} дан ℓ^{II_0} гача ўзгариши $\pm 10\%$ ни ташкил этади ва C_{I-I} нинг сезиларсиз ўзгаришига олиб келади.

Бу усулда рационал даврийлик коэффициенти орқали қўриклараро даврдаги ТХК нинг мақбул даврийлигини аниқланади.

Имитацион-моделлаштириш усули

Имитацион модель – реал объектда физик тажрибасиз фаолият кўрсатишни таъминлайдиган реал тизим ҳолати моделини яратиш жараёни ва


Бу усул қўллашни синашларни тезлаштиради, уларга кетадиган сарф-харажатларни камайтиради, тажрибаларни моделда ўтказиб, ТХК даврийлигининг энг мақбул вариантини танлаб олиш имконини беради.

Моделлаштириш ЭҲМ да бажарилиши мумкин.

Дастлабки маълумотлар сифатида тасодифий сонларнинг тақсимланиши қонунлари хизмат қиласи. (4.9 - расм)

Энг мақбул ТХК даврийлиги қуйидагича аниқланади:

- ТХК даврийлиги – x_i ва вариация коэффициенти – v тайинлади;



4.9 – расм. Имитацион моделлаш жараёни схемаси.

- ҳисоб китоб маълумотларидан иккита ахборот тўплами яратилади: биринчи тўплам бир бузилишга тўғри келадиган йўл(x_i), иккинчи тўплам— TXK даврийликлари(ℓ).

Биринчи ахборот тўпламидан тасодифий равишда x_i нинг муайян миқдори иккинчи ахборот тўпламидан эса ℓ_j нинг муайян миқдори олинади.

Агар $x_i < \ell_j$ бўлса, бузилиш қайд этилади, агар $x_i \geq \ell_j$ бўлса, TXK операциясининг бажарилиши қайд этилади.

Тажриба кўп марта қайтарилиб, бузилиш эҳтимоллигининг қиймати ҳамда операциянинг профилактик бажарилиш эҳтимоллиги қиймати олинади. Агар тажрибаларда бузилмасдан ишлаш эҳтимоллиги рухсат этилган эҳтимолликдан кам чиқса, унда TXK даврийликнинг камайтирилган қиймати қабул қилиниб, тажриба давом эттирилади.

4.3. Автотранспорт воситаларини техник эксплуатация қилишда меҳнат сарфини аниқлаш

Ишлабчиқариш ишчилари сонини ва уларнинг меҳнат ҳақларини аниқлашда TXK ва ЖТ амалларини бажаришга кетадиган меҳнат сарфини аниқлаш лозим. Уларнинг ҳиссаси автомобиль транспортида хизмат ва амаллар таннархининг 30-45% ташкил этади.

Иш ҳажми (t) TXK ва ЖТ амалларини бажаришга сарфланган меҳнатдир. Иш ҳажмининг меъёр бирлиги қилиб ишчи-соат, ишчи-минут қабул қилинган.

Автомобиль транспортида меъёрларнинг қўйидаги турлари ишлатилади:

-диференциаллашган— айрим амалларни бажариш учун ўрнатилади(мой сатхини текшириш, ҳаво фильтрини алмаштириш ва х.к);

- йириклашган— амаллар гурухи, TXK ва ЖТ турлари учун ўрнатилади (TXK-1, TXK-2 даги созлаш ишлари, тормоз колодкаларини алмаштириш ва х.к);

-солишиштирма— автомобиль босиб ўтган йўл бирлигига нисбатан олинади, ишчи-соат/ 1000 км(жорий таъмир меъёрлари);

ТЖК түрі	Ниң ылдам (шашы-шаш)		
	Негізгілік шашының жылдыр МАТ шаш	Көрнекі шаштыры МАТ-6422МБ үшүн	Форд Карагу 1827 үшүн
ТЖК-1	1,2	2,8	2,4
ТЖК-2	1,2	12,0	10,0

Иш вақтинге фотографиясида ижроғи томонидан маълум давр давомида сарфланган барча вақтлар аниқланади. Бу усулда иш вақтинге оператив қисмими ва бекор кетиш қисмими ва унинг сабабларини аниқлаш мумкин.

Хронометражда циклик давом этадиган амалларга сарфланадиган вақт аниқланади.

Хронометражда кузатувлар сонининг аҳамияти катта ва унинг сони нормал тақсимот учун қуидагича аниқланади:

$$T_s = \frac{t^2 - V}{x}.$$

Оғырда: t_s – мөйерланған оғашын (цифрамы жазылған берилген), V – параллель коэффициент, $x^2 = \Delta_s/t$ – нисбий аниқлама.

Мисол $V = 0,38$, $\beta = 0,93$ ($\beta = 1,96$), $x = 0,14$ $T_s = ?$

$$T_s = \frac{t^2 - V}{x^2} = \frac{1,96^2 - 0,38^2}{0,14^2} = 26$$

Алар шу күннүүда $\bar{t} = 100$ шашы-шаштун бүлүс, албайын аниқлама $\Delta = t - \bar{t} = 100 - 0,74 = 74$ шашы, то аниқлана ўртасы ниң ылдамы:

$$T_s = \bar{T}_s = \bar{t}_s = |100 - 74| = 26 \text{ шашы-минутадан}$$

$$t_1 = \bar{t}_s + \Delta = 100 + 74 = 174 \text{ шашы-минутадан интегралда бүлүс.}$$


Бу мисол кузатувлар сонининг тақсимот қонуни вариация коэффициенти ва кузатувнинг нисбий аниқлигига боғлиқлигини күрсатади.

Меъёрлар, ўрта статистик ва прогрессив бўлиши мумкин. (4.10 - расм)

Ўрта статистик меъёрлар: $t_m = \bar{t}$.

$$t_m^{np} = \bar{t} - \sigma$$

Прогрессив меъёрлар



4.10 – расм. Прогрессив меъёрни аниқлаш

Микроэлемент меъёрлар усулида:

- ТХК ва ЖТ амаллари энг оддий ҳаракат ва амалларга ажратилади;
- бу оддий амаллар нисбий ёки мутлоқ бирликларда меъёрланади,

маълумотномаларда келтирилади ва микроэлемент меъёрлари ($t_i^{M\Theta}$) деб аталади;

- барча микроэлемент меъёрлари жамланиб, амалнинг микроэлемент меъёрлари аниқланади:

$$t^* = \sum_i t_i^{M\Theta} \quad (4.14)$$

бу ерда: i - амалдаги элементлар сони.

Амалдаги вақт меъёри қуйидагича аниқланади.

$$t_i = K_y t_i^{M\Theta} \quad (4.15)$$

бу ерда K_y — микроэлементдан табиий меъёрга ўтиш коэффициенти.

Микроэлемент меъёрлаш усулининг афзалиги катта ҳажмдаги қиммат хронометраж кузатувларни ўтказмасдан иш вақти меъёрларини аниқлаш имкониятининг мавжудлигидир.

4.4. Эҳтиёт қисмлар захирасини аниқлаш

ТХК ва ЖТ учун эҳтиёт қисмлар эҳтиёжи автомобил эксплуатацияси жараёнида пайдо бўлади ва сарфлар меъёри кўринишида расмийлаштирилади.

Меъёр турлари:

- молиявий— эксплуатацияга, шу жумладан ТХК ва ЖТ турлари бўйича, сарфланадиган эҳтиёт қисмлар ўртacha солиштирма ҳаражатлари билан ўлчанади, сўм/1000 км;
- номенклатурали(Н) – бир йилда 100 автомобил учун сарфланадиган



ўртача харажатлар билан белгиланади. Улар 400 дан 800 гача не деталларни ўз ичига олади.

- шахсий-муайян АТК, фирма, маршрут учун ишлаб чиқилади ва эксплуатация хусусиятларини ҳисобга олади.

Эҳтиёт қисм сарфи меъёрларини аниқлаш усуллари

Меъёрларни аниқлашнинг 4 усулидан фойдаланилади:

1.Аналитик усулда деталларни алмаштириш оқимининг етакчи функцияси маълумотлари асосида аниқлаш:

$$H_1 = \frac{\Omega(r)}{r} \cdot 100. \quad (4.16)$$

Мисол. $r = 100$ мин; $\Omega(10) = 14$ детал.

$$H_1 = \frac{\Omega(r)}{r} \cdot 100 = \frac{14}{10} \cdot 100 = 140, \text{ яъни } 100 \text{ автомобил учун } 140 \text{ детал.}$$

алмаштирилади.

2. Детални биринчи алмаштиришгача ресурсини аниқлаш:

$$H_{11} = \frac{L_1}{qL_0} \cdot 100. \quad (4.17)$$

бу ерда: L_0 — автомобильнинг ўртача йиллик юрган йўли; L_1 — деталнинг биринчи алмаштиришгача бўлган ресурси; q — ресурснинг тикланиш коэффициенти.

Мисол. $L_0 = 48$ минг км; $L_1 = 50$ минг км; $q = 0,8$

$$H_{11} = \frac{L_1}{qL_0} \cdot 100 = \frac{48,0}{0,8 \cdot 50} \cdot 100 = 120 \text{ детал } 100 \text{ автомобил учун бир йилга.}$$

Агар тикланиш сифати бўйича маълумот бўлмаси ($q = 1,0$), унда

$$H_{11} = \frac{L_1}{qL_0} \cdot 100 = \frac{48,0}{1,0 \cdot 50} \cdot 100 = 96 \text{ детал } 100 \text{ автомобил учун бир йилга.}$$

$$\text{Демак, мешър } \frac{120 - 96}{120} \cdot 100 = 20\% \text{ га камиди.}$$

3. Автомобилнинг ишлаш муддатида ўртача алмаштирилган деталлар сони бўйича аниқлаш:

Битта автомобильнинг ишлаш муддатида деталлар алмаштиришнинг ўртача сони

$$n_a = \frac{L_a - L_0}{q \cdot L_0} \text{ бу ерда: } L_a = L_0 + t_a.$$

100 автомобил учун t_a йилда алмаштирилган деталлар сони

$$H_{12} = \frac{n_a \cdot 100}{t_a} = \frac{(L_a - L_0) \cdot 100}{q \cdot L_0 t_a} = \frac{100}{q} \left(\frac{L_a - L_0}{L_0 t_a} \right) = \frac{100}{q} \left(\frac{1}{t_a} - \frac{1}{L_0} \right). \quad (4.18)$$

Юқоридаги мисолдаги маълумотлар бўйича ва $t_a = 10$ йил бўлса:



Таҳлиллар, кўрсатишига [8] юк автомобилининг иш муддати 10-12 йилга камайиши қуидагиларга имкон беради:

- рўйхатдаги автомобиллар сонини 20-25% қисқартириш;
- асосий агрегатларнинг мукаммал таъмирга эҳтиёжини 8-15% камайтириш;

- АТК да ТХК ва ЖТ нинг ишчи кучига эҳтиёжни 25-30% камайтириш;
- эҳтиёт қисмлар харажатини 23-40% камайтириш;
- келтирилган харажатларни 14-20% камайтириш.

Микроиқтисодий даражада автомобил эгаси т йил эксплуатация қилгандан сўнг уни ишлатишни давом эттириш, ёки янгисига алмаштириш ёки янгирифига алмаштириш харажатларини солиштириб, энг мақбул вариантини танлаши мумкин.

Назорат саволлари

1. Автомобилларнинг техник эксплуатация меъёрлари нима ва уларнинг қандай турларини биласиз?
2. Автомобил иш қобилиятини таъминлашнинг стратегияси ва тактикаси нимадан иборат?
3. ТХК даврийлигини аниқлашнинг қандай усуллари мавжуд ва уларнинг фарқлари нимадан иборат?
4. ТХК ва ЖТ меҳнат сарфи меъёри қандай аниқланади?
5. Меъёрлашнинг қандай усулларини биласиз?
6. Прогрессив ва ўрта статистик меъёрнинг фарқини тушунтириб беринг.
7. Эҳтиёт қисмлар сарфи меъёрларини аниқлаш усуллари ва уларнинг аниқлик даражасини айтиб беринг?
8. Автомобил ва агрегат ресурсларининг қандай меъёрларини биласиз?

5-маъзуза: Автомобилларнинг техник эксплуатацияси ва сервисида меҳнат сарфини аниқлаш.

Режа:

- 1.Автомобилларга техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлашда меҳнат сарфи.**
- 2.Автомобилларнинг техник эксплуатацияси ва сервисида меҳнат сарфи меёrlари турлари ва структураси.**
- 3.Автомобилларга техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлашда меҳнат сарфини меёrlаш усуллари.**

1.Автомобилларга техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлашда меҳнат сарфи.

Автомобиллар техник эксплуатациясининг дунё амалиётида техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлашнинг режавий-оғоҳлантирувчи тизими қабул қилинган.

ТХК ва Т тизимининг қуидаги даражалари белгиланган:

Харакатдаги таркибийн	
Русуми	Русуми, минг.км.
ГАЗ-2410 синий автобуси	170
ЛАЗ-695 автобуси	124
ЗИЛ-130 юк автомобили	270
МАЗ-5337 зерни таркашы	288

Изоҳ: Бу меъёрлар Собиқ Иттифоқ Низоми меъёрларини Республикамиз табиий-иклим шароитини ҳисобга олувчи тўғрилаш коэффициенти қиймати($K_3=0,9$) га кўпайтириш орқали берилган

$$100 \cdot 0,9 = 90 \text{ минт.км.}$$

Собиқ Иттифоқ автозаводларида ишлаб чиқарилган автомобиллар учун икки босқичли техник хизмат кўрсатиш(TХК-1, ТХК-2) тизими амал қиласди. (5.2-жадвал).

5.2-жадвал

Харакатдаги таркибга техник хизмат кўрсатиш даврийлиги, минг.км

Харакатдаги таркиб	Собиқ Иттифоқ Низоми Ниҳоя		Ўзбекистон Республикаси Низоми 1996-д		ТЛТМ-91	
	ТХК-1	ТХК-2	ТХК-1	ТХК-2	ТХК-1	ТХК-2
Бензин автомобиллар	4	16	3,6	14,4	5	20
Автобуслар	8,8	14	3,15	12,6	5	20
Юнит автомобиллари ва уларни тарафидан изолюциялар	3	12	2,7	10,8	4	16
Тиркамал ва зерни таркашлар	3	12	2,7	10,8	4	16

Изоҳлар.

1.ТЛТМ-91 –технологик лойиҳалашнинг тармоқ меъёрлари истиқболий автомобилларга мўлжалланган.

2.Ўзбекистон Республикаси меъёри Собиқ Иттифоқ меъёрини тўғрилаш коэффициенти қиймати($K_3=0,9$) га кўпайтириш орқали аниқланган.

АТК бўйича ТХК ва ЖТ меъёрий иш ҳажми "Ўзбекистон Республикаси автомобил транспорти ҳаракат таркибига техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш тўғрисида Низом" га(1996 йил) асосан ёки Низомда автомобил русуми келтирилмаган бўлса, қайси туркумга киришига қараб ёки автомобил ишлаб чиқарган заводнинг тавсияси Ўз Р автомобил ва дарё транспорти агентлиги, Республика давлат стандарти ёки бошқа ташкилот томонидан сифатининг меъёрий талабларга мослиги ҳақидаги хуносасига асосан танлаб олинади[1].

“Ўзбекистон Республикаси автомобил транспорти ҳаракатдаги таржима техник хизмат кўрсатиш ва таъмиглаш тўғрисидаги Низом” да ТХК ва ЖТ иш ҳажми меъёрлари, жумладан айрим автомобиллар учун қуийдаги меъёрлар келтирилган(5.3-жадвал). Бу меъёрлар қуийдаги шароитларга мос:

- ишлатиш шароити I тоифа($K_1=1,0$);
- асосий(базавий) автомобил ($K_2=1,0$);
- Республиканинг иссиқ, қуруқ иқлимий кичик тумани;
- IV тажовузкор бўлмаган атроф-мухит($K_3=1,0$);
- автомобилнинг юрган йўли мукаммал таъмиргача юриладиган йўл меъёрининг 50...75% ни ташкил этади ($K_4=1,0$);
- АТКдаги автомобиллар сони- 200...300, технологик мос гурӯхлар сони 3, ($K_5=1.0$).

5.3-жадвал

Ҳаракатдаги таркибнинг ТХК ва ЖТ иш ҳажми меъёрлари

Ҳаракатдаги таркибниң турлари	Биринчина ташкил берувган таъмиргача, Низомнига			ЖТ иш ҳажми/1000 км
	ТХК	ТАК-1	ТАК-2	
ГАЗ-3401 автомобили	0,9	2,3	10,3	3,3
ДАЗ-3501Н автомобили	0,8	3,8	24,0	6,5
ДАЗ-3501Н автомобили	0,49	2,9	10,6	4,0
Берча турдаги демонстрирован	0,1	1,0	2,0	1,43

Бошқа шароитлар қуийдаги тўғрилаш коэффициентлари орқали ҳисобга олинади. (5.4, 5.5, 5.6, 5.7, 5.8 - жадваллар).

5.4-жадвал

Ишлатиш шароитларига қўра меъёрларни тузатиш коэффициенти- K_1

Ишлатиш коэффиц.	Таъмиргача бўлганини шартланадиган	Минъетар		Муҳимни ташкил берувган такоми	
		Демонстрирован	Берча турдаги демонстрирован	Демонстрирован	Берча турдаги демонстрирован
I	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
II	0,9	1,1	0,9	0,9	0,9
III	0,8	1,2	0,7	0,8	0,8
IV	0,6	1,5	0,5	0,6	0,6

*- Автомобил учун ҳам шу қийматларни олиш мумкин.

5.5-жадвал

Ҳаракатдаги таркибнинг турлари ва унинг ишини ташкил этишга қўра меъёрларни тузатиш коэффициенти- K_2

Коэффициент корреляции между показателем и показателем	Методика		
	ДФК на ЗСТ показатель коэффициент	Аддитивная множественная оценка корреляции Вифлеема	Линейно- коэффициентная
1	2	3	4
Коэффициент корреляции	1,00	1,00	1,00
Множественная коэффициентная	0,1	0,97	0,97
Линейный коэффициент корреляции	1,19	0,9	1,1
Несколько коэффициентов	0,2	0,89	1,2
Уровень достоверности коэффициента блок-диагностической корреляции	1,19	0,89	1,2
Линейный коэффициент блок-диагностической коэффициентной блок-диагностической корреляции	0,2	0,89	1,29
Несколько коэффициентов блок-диагностической корреляции	1,29	0,79	1,2
Несколько коэффициентов блок-диагностической корреляции	1,29	0,79	1,2
Несколько коэффициентов блок-диагностической корреляции	0,1	--	--
Несколько коэффициентов блок-диагностической корреляции	0,2	--	--

* - Автомобил учун ҳам шу қийматларни олиш мүмкін

5.6-жадвал

Иқлим шароитига құра мөъёрларни түғрилаш коэффициенти- K_3 ,
 $K_3 = K_3^I \cdot K_3^{II}$.

5.7-жадвал

Жорий таъмирлашнинг солишири маҳнат ҳажми (K_4) ва ишлатиш бошлангандан буён юрилган йўлга кўра, ТХК ва ЖТ да туриш муддати (K_4^I) меъёрларини тузатиш коэффициентлари



Фирмавий техник хизмат кўрсатиш, одатда, ўзгармас даврийлик ўтказилиши режалаштирилади ва унинг даврийлиги ривожланган мамлакатларда шахсий енгил автомобилларнинг ўртacha юрган йўли- 15 минг км.га тенглашади. (ВАЗ-2110, 2112, Вольво-400,700,900, Мазда 626, KJA Motors Spectra, Rio, Magentis Sportage, Carnival ва бошк.).

Оғир эксплуатация шароити учун “Мазда” автомобили ТХК даврийлиги 1,5 марта қисқартирилиши (10 минг км) тавсия этилади. Иссик иқлим шароитида “ВАЗ”, “Нексия” ва бошқа русумли автомобиллар учун ҳам ТХК даврийлиги қилиб 10 минг км тавсия қилинади. Ҳар қайси навбатдаги ТХК тури ўзининг амаллар номига эга ва у олдингиси билан 47-78% мос тушади(5.9-жадвал)

5.9-жадвал

ВАЗ-2110 автомобил учун ТХК босқичлари меъёрлари тавсифи

Сервис талонида реквизит	Номинал жарнаба жартиси	Жарнаба жартиси	Осаддан в ташнив жартиси баландиши ничи, %	Боз ташнив жартиси жарнаба-жартиси
1	15	24	-	2,62-2,88
2	30	37	6,2	1,83
3	45	77	7,8	4,00
4	60	77	7,8	6,67
5	75	29	7,8	3,89
6	90	18	8,7	7,78
7	105	24	8,2	8,89

Toyota ва UZ DEAWOO автомобиллари учун ТХК даврийлиги 10 минг км олинган, аммо иш ҳажмлари тоқ талонли(№1,3...) ТХК лар учун қайтарилади жуфт талонли(№2,4...) ТХК лар учун эса, ўзгариб боради[9] (5.10-жадвал).

5.10 - жадвал

Toyota ваUZ DEAWOO автомобиллари учун ТХК меъёрлари

Дистанция	100 000	200 000	300 000	400 000	500 000	600 000	700 000
100 000	2,0	1,7	1,2	1	1	1	1
200 000	2,0	2,2	1,2	4	4,5	4	4
300 000	2,0	1,2	1,2	3	3,2	3	3
400 000	2,1	1,9	2,0	4,5	4	4,2	4,2
500 000	2,0	1,2	1,2	1	1,2	1	1
600 000	2,0	1,2	1,2	4,2	4	4,2	4,2
700 000	2,0	1,2	1,2	1	1,2	1	1
800 000	2,1	1,9	0,9	4,5	4,7	4,2	4,2
900 000	2,0	1,2	1,2	4,5	4,7	4,2	4,2
1000 000	2,0	2,2	2,2	-	-	-	-

Аммо KJA Motors автомобиллари учун ТХК даврийлиги 15 минг км олинган, иш ҳажмлари эса ҳар қайси талон учун ҳар ҳил белгиланган[9].

Баъзи заводлар автомобил ёшига қараб иш ҳажмининг ошишини кўзда тутади. Масалан, ВАЗ да иш ҳажмини 5-8 йил ишлаш давомийлигига – 10%, 8 йилдан ортиғида– 20 % ошириш тавсия қилинади.

Завод тавсияларида одатда, жорий таъмир иш ҳажмлари кўрсатилмайди. Бу эса, автомобиллар ишончлилиги умумий баҳосини(ТХК ва ЖТ меъёрлари), ишлаб чиқариш минтақаларидағи постларни, устахоналарнинг технологик ҳисобини қийинлаштиради.

Фирмавий сервис хизмат кўрсатишида техник хужжатларниң эмаслиги (айниқса автомобил эгаларига етказилмаслиги), ишлаш шарс хисобининг сустлиги, жорий таъмир иш ҳажмининг йўқлиги бу тизимнинг камчилиги ҳисобланади.

Автомобилларнинг халқаро алмашинуви (экспорт, импорт, лизинг, туризм) ни ҳисобга олиб, автотранспорт ва ахборот компаниялари(масалан “Оутдейт” компанияси ва бошқалар) томонидан 40-45 заводнинг 600-700 турдаги енгил автомобиллари учун ТХК ва Т тизимида қўлланиладиган иш ҳажми меъёрлари, автомобилнинг диагностик параметрлари чоп этилиб борилади.

3. Автомобилларга техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлашда меҳнат сарфини меъёрлаш усуллари.

Ресурслар бўйича тўғрилашнинг асосий вазифалари қўйидагилардир:

- объектив таъсир кўрсатадиган омилларнинг АТЭ меъёрларига таъсирини сон жиҳатдан ҳисобга олиш;
- тариф ва таннарх ўзгаришида текширувчи ташкилотлар(солик ва транспорт инспекцияси, прокуратура, маҳаллий маъмурият) олдида хуқуқий асосларга эга бўлиш ва бошқалар.

Ресурс бўйича тўғрилашда этalonга нисбатан берилган шароит учун тўғрилаш коэффициентлари ёрдамида АТЭ меъёрлари ўзgartирилади. Муайян шароит учун АТЭ меъёрлари қўйидагича аниқланади:

1) ТХК даврларига:

$$L_{\text{тх}} = L_{\text{тх}}^{\text{н}} \cdot K_1 \cdot K_2, \quad (3.1)$$

2) Автомобилнинг ишувчал таъмирича ёки ресурсларига:

$$L_{\text{и}} = L_{\text{и}}^{\text{н}} \cdot K_1 \cdot K_2 \cdot K_3, \quad (3.2)$$

3) ТХКни юзами:

$$T_{\text{тх}} = T_{\text{тх}}^{\text{н}} \cdot K_1 \cdot K_2, \quad (3.3)$$

4) Жойни таъмирича юзами:

$$T_{\text{ж}} = T_{\text{ж}}^{\text{н}} \cdot K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 \cdot K_4 \cdot K_5, \quad (3.4)$$

Бу тради: $L_{\text{тх}}^{\text{н}}, L_{\text{и}}^{\text{н}}, T_{\text{тх}}^{\text{н}}, T_{\text{ж}}^{\text{н}} \rightarrow$ ТХК даврларига, ишувчал таъмирича ёки ресурсларига, ТХКни юзами ва жойни таъмирича юзамини иштадиган таъминотчи (Номидан иштадиган).

K_1 - иштадиган ширинтини ҳисоблашувчи коэффициент (3.4-яддивал);

K_2 - автомобил турмалини ёки унинг ҷашини иштадиган ширинтини ҳисоблашувчи коэффициент (3.5-яддивал);

K_3 - иштадиган ширинтини ҳисоблашувчи коэффициент (3.6-яддивал);

K_4 - автомобилнинг иштадиган бўйи жони иштадиган бўйи (юк “бони”) ни ҳисоблашувчи коэффициент (3.7-яддивал);

K_5 - автомобиллар сонни ва монтажурунни ҳисоблашувчи коэффициент (3.8-яддивал).



Марта, Июни и Июли айларда Ш шартномашында таъмири мүмкүн болған бүтін көмеги берилгенде негизги ТАК даурийлуга инвалид.

Есем: Узбекистон Республикасы 1966 йыл Номинацияның күйесінде мельдирилген тапсынбалының.

$$L_{\text{шт}}^M = 270\,000 \text{ км}, \quad L_1^M = 100\,00 \text{ км}, \quad L_2^M = 3600 \text{ км}, \quad K_1 = 0,8, \quad K_2 = 1,0.$$

Мүнәсаб таъмири мүмкүн болған бүтін:

$$L_{\text{шт}} = L_{\text{шт}}^M \cdot K_1 \cdot K_2 = 270\,000 \cdot 0,8 \cdot 1,0 = 216\,000 \text{ км}$$

TXK-1 даурийлуга:

$$L_1 = L_1^M \cdot K_1 \cdot K_2 = 3600 \cdot 0,8 \cdot 1,0 = 2880 \text{ км}$$

TXK-2 даурийлуга:

$$L_2 = L_2^M \cdot K_1 \cdot K_2 = 10000 \cdot 0,8 \cdot 1,0 = 8000 \text{ км}$$

Тезкор тұғрилаш .

Тезкор тұғрилаш мақсадлари муайян корхонанинг ўзига хос шароитларини (юклама, ҳаракатланиш маршрути, миңтақавий талаблар ва бошқ.) ҳисобга олиб, мұхандис-техник ходимлари ресурсидан самаралироқ фойдаланиб, АТК техник ҳолати даражасини күтаришдан иборат.

Тезкор тұғрилашда АТК да амалда бажарилаётган TXK амалларини, диагностикалашни ва уларнинг сифати ва тартиботи билан билвосита боғлиқ бўлган жорий таъмир амалларини биргаликда таҳлил қилинади. Бунда АТК да амал қилаётган ҳисобот тизимидан ва ҳақиқатдаги TXK ва ЖТ амаллари бажарилиши тадқиқотлари натижаларидан фойдаланилади.

Бу жараёнда TXK ва ЖТ амаллари таҳлил қилиниб, уларнинг қайсилари мақбул TXK даврийлигиде ўтказилиши (“профилактика”), қайсилари жорий таъмир(“таъмир”) амаллари орасыга киритилиб, иш қобилияти тикланиши лозимлиги аниқланади.

Бу тадқиқотлар натижасыда TXK амаллари даврийлиги, номи, иш ҳажми аниқланади, жорий таъмир солиштирма иш ҳажми аниқлаштирилади.

Ангрен“Автонефттранс” АТК да ўтказилган тадқиқотлар натижасыда МАЗ-642208 ва Форд-Карго-1827 эгарли шатакчи автомобиллари ва Istanbul Fruenhaufer ярим тиркамаларидан иборат автопоездлар учун TXK-1, TXK-2 МХ мөёрлари тезкор тұғрилаш усули билан аниқланган, корхона стандартти ишлаб чиқилған[8] ва амалиётта татбиқ этилган.

Бу усул билан муайян маршрутларда ишлайдиган автобус ва автопоездлар учун “оғохлантирувчи таъмир” (ёки алмаштириш) деб аталадиган амаллар сирасини аниқлаш ва ишлаб чиқаришта татбиқ этиш мумкин.

4. Автомобилни техник хизмат қўйишишга қўйиши режалаштириш.

Автомобилни TXK-1 ва TXK-2 га қўйиши “календар” ва “юрган йўли” бўйича режалаштирилади.



7. Автомобилни техник хизмат қўрсатишга қўйиши режалаштиришнинг куслари мавжуд ва улар қандай амалга оширилади?

6-маъзуза: Автомобилларга техник хизмат қўрсатиш ва таъмирлаш тизимини шакллантириш қонуниятлари. Автомобилларни эксплуатация шароитига мослаштириш.

Режа:

1.Автомобилларга техник хизмат қўрсатиш ва таъмирлаш тизимиға қўйиладиган асосий талаблар.

2.Автомобилларга техник хизмат қўрсатиш ва таъмирлаш тизимиғи ишлаб чиқиши ва такомиллаштириш.

3.Техник хизмат қўрсатиш ва таъмирлашда эксплуатация шароитини ҳисобга олиш. Автомобиллар техник эксплуатацияси меёrlарни тезкор тўғрилаш.

4.Мосланувчанлик- автомобиллар хусусиятидир. Автомобиллар мосланувчанигининг сонли қўрсатгичидир.

5.Мосланувчанлик тизими қўрсатгичлари. Самарадорликни ошириш методологияси.


1.Автомобилларга техник хизмат қўрсатиш ва таъмирлаш тизимиға қўйиладиган асосий талаблар.

Автомобилнинг эксплуатация шароити агрегат ва деталларнинг ишлаш режимига таъсир этади. Уларнинг техник ҳолати параметрларининг ўзгаришини қўйидаги схема бўйича тезлаштиради ёки секинлаштиради: автомобиль ва унинг элементлари ишлаш режими- техник ҳолат параметри ўзгариши жадаллиги- иш қобилияти ва ишончлилигининг қўрсаткичлари- автомобиль, агрегатлар, деталлар ресурслари- ТХК амаллари номи ва даврийлиги, ТХК ва таъмир иш хажми, эҳтиёт қисмлар ва материаллар сарфи ва ҳоказо.

Ҳар хил эксплуатация шароитида автомобиллар ишончлилигининг амалдаги қўрсаткичлари бир хил ишлаш давомийлигида фарқ қиласди ва у техник эксплуатация самарадорлиги қўрсаткичларида намоён бўлади.

Эксплуатация шароитларини ҳисобга олиш АТЭ меёrlарини, ресурсларга талаб (ходимлар, ишлаб чиқариш техника базаси, эҳтиёт қисмлар ва материаллар)ни аниқлашда зарур.

Икки гурух шароитларини фарқлаш зарур(6.1-расм)



6.1-расм. Эксплуатация шароитининг АТЭ мөъёлларига таъсири

Объектив ва аниқ белгиланадиган шароитлар барча автомобиллар ишончлилигига ва техник эксплуатация мөъёлларига ҳам бир хилда таъсир кўрсатади.

Улар ташқи ва ички бўлади.

Ташқи шароитлар (6.1-расм) масалан, йўл тури (6.1-жадвал), ҳаракатланиш шароити (6.2-расм), иқлимий (6.3-расм), мавсумий шароитлар (6.2-жадвал) ва бошқалар.

6.1 -жадвал

Йўл қопламаси турининг оғир юк кутарувчи автомобил агрегатлари иш режимига таъсири

Параметр	Цементо бетон, асфалтобетон	Битум минерал аралашмалар	Чақиқ тош, майдатош	Тош, зич тупрок	Табиий тупрок
Думалашга каршилик коэффициенти	0,014	0,020	0,032	0,040	0,08
Ўртача техник тезлик, км/соат	66	56	36	27	20
Бир км йўлда тирсакли валнинг айланишлар ўртача сони	2228	2561	2628	3185	4822
Рул чамбараги бурилиш бурчагининг ўртача квадратик оғиши, град.	8	9,5	12	15	18
1 км да тормозлаш сони	0,24	0.25	0.34	0.42	0.9
1 км. да узатмалар қайта уланиши сони	0,52	0,62	1,24	2,10	3,20

100 км. да 30 мм. дан ортиқ амплитуда билан османинг төбраницелар сони	68	128	214	352	62
--	----	-----	-----	-----	----

6.2-жадвал

Мұтадил иқтіміл шароитида мавсумлар бүйіча катта классдаги шаһар автобуслари ишончлилігін күрсаткычининг ўртача қыйматлары, %


<u>Параметр</u>	Куз	Киш	Баҳор
Таъмир ҳодисасига тўғри келган ишлаш давомийлиги	97	81	94
Йўлдаги бузилишга тўғри келган ишлаш давомийлиги	88	77	88
Техник сабабларга кўра йўлдаги вақтнинг йўқотилиши:	ҳодисалар сони	114	128
	соат	112	125
Изоҳ: кўрсатгичлар ёз учун 100% қабул қилинган			112

Масалан, юк автомобилининг иш режими жадал шаҳар ҳаракатида бир хил қопламали шаҳар ташқарисидаги йўлдаги ҳаракатга нисбатан қуидагича ўзгаради:
-ҳаракат тезлиги 50-52 % камаяди;
-1 км. да тирсакли валнинг ўртача айланишлар сони 130 — 136 % ортади;
-узатмаларни алмаштиришлар сони 3 - 3,5 баробар ошади.
-тормоз механизмы ишқдпанишининг солиштирма иши 8-8,5 баробир ортади;
-эгри чизиқли траектория бўйлаб ҳаракатда босиб ўтган йўл 3-3,6 баробар ортади.

6.3-жадвал

Үрта классдаги автобус ишонччилигига ва иш режимига хайдовчи малакасининг таъсирини


Ўрта классдаги автобус ишончлилигига баиш режимига ҳайдовчи малакасининг тавсии						
Ҳайдовчи малакаси	Ўртача техник тезлик, км/соат	Тирсакли вал айланишининг ўртача частотаси, айл/мин	1 км га тўғри келган тормозланиш сони	Умумий йўлдан тормозланиш йўли йиғиндиси, %	Бузилишлар сони, %	Агрегатлар ресурси, %
Юқори	35,3	1780	1,7	2,1	100	100
Ўрта	33,6	2220	2,6	2,0	140	44-70



6.2.-расм. 16т юк кўтарадиган автопоезднинг такомиллашган қопламали йўлдаги ҳаракати цикл. қийматининг ўзгариши.

1-тўхташ, 2-оралиқ тезлик, V_h -8, 3-16, 4-24, 5-32, 6-40 км/соат. Цикл V_h - V_n - V_k

6.2-расмдан кўринадики, автопоезднинг ҳаракат цикли қиймати унинг тезлиги тебранишига боғлиқ равища, бир неча марта ўзгаради. Хорижда автомобилларнинг ҳаракат тезлиги назоратига катта эътибор ажратилиши тасодифий эмас.



6.3.-Ҳаво ҳароратининг автомобилларнинг бузилиш оқими параметрига таъсири

Ички шароитлар, масалан, автомобиллар ёши, хили, русуми, маркаси, корхонада автомобиллар сони (концентрация) ва бошқалар. Маҳаллий ёки субъектив шароитлар ҳар қайси (6.1-расм) корхонада автомобил гуруҳи ёки муайян автомобилга муносабат. Масалан, ходимлар малакаси (6.3-жадвал), ташиш масофаси ва бошқалар.

МАДИ маълумотларига кўра, катта шаҳар шароитида ишлайдиган маршрут автобусларининг ТХК ва таъмир бўйича сарфларига автобус бекатларининг ўртача оралиғи (омил оғирлиги 67-69%), йўловчи сифимидан фойдаланиш (24-28%) ва транспорт оқими зичлиги (4-6%) таъсир этади. Ҳатто битта транспорт тизими чегарасида буюмлар вариацияси диапазони ҳар хил маршрутлар бўйича мос равища 4,6:3,4:6,6 мартани ташкил қиласди. 6.4 жадвалдаги берилганлар эксплуатация шароитининг автомобил ишончлилиги ва техник ҳолатига таъсирини объектив баҳолаш муҳимлигини таъкидлайди.

6.4-жадвал

Транспорт шароитининг автомобил ишончлилиги ва унумдорлигига таъсири, %

Параметр	Фойдаланиш коэффициенти			
	Йўлдан β		Юк кўтариш γ	
	0,7	0,9	0,8	1,0
Иш унуми	120	122	114	132
Бузилиш ва носозликлар сони	109	119	104	112
Агрегат ва деталлар алмашуви сони	105	114	102	105
<i>Изоҳ, $\beta=0,5$; $\gamma=0,7$ учун пароаметрлар қиймати 100% teng деб қабул қилинган</i>				



Автомобилларни янада жадал ишлатиш МТХ нинг ҳаражатларини сабаби юборади ва буни мижозлардан чиқариб олиш лозим.

Бундай компенсациянинг манбаи “Ташиш” кичик тизими оладиган қўшимча даромаддир. Шундай қилиб, гап автомобил транспорти икки кичик тизими - тижорат ва техник эксплуатацияси (I - ва 9- бобга қаранг) нинг ўзаро муносабатлари, умумий ҳолда эса - АТЭ кичик тизимининг мижозлар билан ўзаро муносабатлари ҳақида гап бормоқда.

2. Автомобилларга техник хизмат кўрсатиш ва таъмиглаш тизимини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш.

Шундай қилиб, автомобиллар ва парклар ишончлилик кўрсаткичи ва меъёрларга таъсир этадиган ҳар хил эксплуатация шароитларида ишлаши мумкин. Афсуски, хозирча автомобил ва агрегатларнинг ишлаш режимидан ишончлилик кўрсаткичлари ва АТЭ меъёрларигача бу таъсирнинг бутун занжирини аналитик ифода қилишнинг имкони бўлмаяпти. Бунинг учун статистик маълумотлар, кузатув натижалари корреляция ва регрессияли боғликланишлардан фойдаланилади, мавжуд тажриба умумлаштирилади.

Аниқ кўринадики, оғирроқ эксплуатация шароитида ишлаётган автомобиллар иш қобилиятини таъминлаш учун катта меҳнат ва моддий ресурслар талаб қилинади, автомобиллар ТХК ва таъмири сарфлари ва ташиш таннархи объектив равишда, юқори бўлади. Буни техник эксплуатация жараёнини режалаштирганда ва меъёрлашда ҳисобга олиш керак.

Ишлаш шароитини ҳисобга олиш, АТЭ конуниятларининг тўққизинчи тури асосида амалга оширилади ва бунга шароитни таснифлаш, муайян гурух автомобиллари амалдаги эксплуатация шароитларини идентификациялаш ва ТХК ва таъмир меъёрларини тўғрилаш орқали эришилади.

Амалда бу масалалар қўйидагича ечилади:

Объектив ва маҳаллий ёки субъективларга ажратиладиган омиллар аниқланади. Масалан, катта юқ кўтарадиган автомобил бузилиши ва носозликлар оқими параметри транспорт ва йўл шароитларига қўйидагича боғлиқ;

$$w = -0.68 + 0.4\beta + 12\gamma + 0,08K_m - 7 \cdot 10^4 l + 16f + 12 \cdot 10^3 i + 19P \quad (6.1)$$

Бунда, омилларнинг таъсир даражаси, % қўйидагича:

- қоплама тури (думалашга қаршилик коэффициенти $f = 31(29-33)$);
- маршрутдаги йўл нишабининг ўртacha қиймати $l = 15(12-18)$;
- маршрутда (ҳаракатга) ҳалақитлар (муайян маршрутда ўрта тезликнинг шахар ташқарисидаги биринчи техник тоифа йўлидаги тезликка нисбати) $P = 20 (19-21)$;
- йўлдан фойдаланиш коэффициенти $\beta = 13 (12-14)$;
- юқ кўтаришдан фойдаланиш коэффициенти $\gamma = 8 (6-10)$;
- тиркамадан фойдаланиш коэффициента $K_m = 6 (5,5-7)$;
- юқ билан юриш йўли $l = 7(6-8)$.

Ушбу мисолда, ҳамма автомобилларга таъсир кўрсатадиган объектив

Харакатланиш шароитлари: У₁ - шаҳардан ташқари (50 км.дан ортиқ, кичик шаҳарларда (аҳолиси 100 мингдан кам); У₃ - катта шаҳарларда (аҳоли 100 мингдан ортиқ).

б) Автомобил тури (енгил, юк, автобус), туркуми ва класси бўйича (енгил автомобиллар -двигател ҳажми бўйича, юк автомобиллари - юк кўтара олиши бўйича, автобуслар-узунлиги бўйича).

в) Табиий-иқлим шароити, бунда уларнинг районлаштирилишига мос равиша ва юқори тажовузкор муҳитли районларни ажратилган ҳолда ҳисобга олинади.

6. 6-жадвал

Россия худудини табиий-иқлимий шароити бўйича районлаштириш

Маъмурий – территориал бирлик	Ииқимий район
Соҳа: Республикаси (Ёқутистон), Магадан области	Жуда совуқ
Республикалар: Олтай, Карелия, Коми, Тува, Хакасия. Областлар: Олтай, Красноярск, Приморск, Хабаровск Ўлкалар: Амур, Архангельск, Иркутск, Камчатск, Кемерово, Мурманск, Новосибирск, Омск, Сахалин, Томск, Чита.	Совуқ
Областлар: Башқирдистон, Удмуртия, Республикалар: Перм, Свердловск, Курган, Челябинск,	Мўътадил совуқ
Республикалар: Шимолий Осетия, Адигея, Доғистон, Ингушетия, Карабай-Черкас, Кабардин-Болқор, Чеченистон	Мўътадил иссиқ
Ўлкалар: Краснодар, Ставропол. Областлар: Калининград, Ростов	Мўътадил иссиқ, нам
РФнинг қолган худудлари	Иссиқ, нам
	Мўътадил

г)Паркдаги автомобиллар ёши, ишлаш давомийлиги бўйича 9 гурухга ажратилади, у автомобилнинг биринчи мукаммал таъмиргача меъёрий ресурсига нисбатан олинади, яъни биринчи ёши бўйича гурух ишлаш давомийлиги $0,25L_k$ билан, иккинчиси эса - 0,25-0,50, учинчиси -0,50-0,75; тўртинчиси - 0,75-1,0; бешинчиси - 1,0-1,25; олтинчиси — 1,25-1,50; еттинчиси - 1,50-1,75; саккизинчиси - 1,75-2,0; тўққизинчиси 2,0 L_k дан ортиқ.

д)Корхонада автомобилларнинг тифизлиги (парк катталиги, унинг турлари ва туркумлари).

з)Ҳар қайси ҳисобга олинадиган омил идентификация белгиларига эга, улар шу шароитда ишлаётган автомобиллар гуруҳини айириб олиш имконини беради. Масалан, эксплуатация шароити учун бундай гуруҳлар бешта (6.5-жадвал), Россия табиий-иқлимий шароити учун ҳам бешта (6.6-жадвал).

Бундан ташқари, юқори тажовузкор муҳитли қўйидаги районлар ажратилган: Қора, Каспий, Азов, Балтик, Оқ, Баренцево, Карск, Лаптевлар, Шарқий-Сибир, Чукотка, Беринг, Охотск, Япон денгизларининг қирғоқбўйи районлари (йўлнинг эни 5 км.гача).

мөйөрларини ўзгаришишdir.

Муайян эксплуатация шароити учун натижавий мөйөр қуидаги формулада бўйича аниқланади:

$$H_n = H_0 \cdot K_I \cdot K_{II} \cdot K_{III} \cdot K_{IV} \cdot K_V = K_n \cdot H_0$$

бунда, K_I-K_V - тўғилаш коэффициентлари (6.8-жадвал ва 7-иловага қаранг); K_n натижавий тўғрилаш коэффициенти, у ТХК даврийлиги ва ресурс учун чегарага эга $K_n > 0,5$; H_0 - эталон шароит учун мөйөр. Эталон шароитга ($K_i=1$) қуидагилар тўғри келади:

1.Биринчи тоифа эксплуатация шароити:

- Йўл (Д) — асфалтобетон ва бетон қоплама;
- Рельеф (Р) — текислик, сал баландлик ва баландлик жой;
- Ҳаракатланиш шароити (У) - шаҳар чегарасидан ташқарида.

2.Автомобилнинг базавий русуми (K_{II}).

3.Мўътадил иқлимли район, мўътадил тажовузкор муҳит (K_{III}).

4.Эксплуатация бошидан ишлаш давомийлиги автомобилнинг МТ (K_{IV}) гача мөйёрий ресурсидан 50-75%.

Парк катталиги технологик жиҳатдан бир-бирига мос келувчи учта гурӯҳ автомобиллар 200-300 та ТХК ва ЖТ ўтказишида улар учун бир хил постлар, жиҳоз, ходимлар малакаси қўлланилиши мумкин.

6.8-жадвал

Эксплуатация шароити тоифасига боғлиқ ҳолда мөйёrlарни тўғрилаш K_1 коэффициенти

Эксплуатация шароити тоифаси	Мөйёrlар			
	ТХК даврийлиги	ЖТ солиштирма иш ҳажми	МТ гача ресурс	Эҳтиёт қисмлар сарфи
11	0,9	1,1	0,9	1,10
111	0,8	1,2	0,8	1,25
IV	0,7	1,4	0,7	1,40
V	0,6	1,5	0,6	1,65

I-тоифа эксплуатация шароити учун ҳамма мөйёrlар бирга тенг деб қабул

Ишлаб чиқариш техника базасини лойиҳалаганда ёки қайта қурганда, асосан, кўрилган мөйёrlар тизими ва уларнинг ресурс бўйича тўғриланиши қўлланилади. Ресурс бўйича тўғрилашга автомобил транспорти корхоналарини технологик лойиҳалаш мөйёrlарида (ТЛУМ) аниқлаштирилган қуидаги узгаришилар ва қўшимчалар киритилади:

Лойиҳаланаётган АТК 40 ва ундан ортиқ йил ишлатилиши мумкинлиги учун автомобил ишончлилиги ошиши, конструктив такомиллашуви, ТХК ва таъмирнинг самаралироқ технологияси ва ташкили қўлланишини ҳисобга олиб, қатъиyroқ лойиҳавий мөйёrlар қўлланилади:

- ТХК ҳисобий даврийлиги ҳар хил турдаги автомобиллар бўйича 15-30%га оширилади;
- МТгача ҳисобий ресурслар ҳам оширилади;
- ҳисобий иш ҳажми ҳамда автомобилларнинг ТХК ва ЖТ да туриш мөйёrlари 1,3-1,8 марта камайтирилади.

1.Ҳаракатдаги таркиб модификациясини ҳисобга оловчи K_{II} тузатиш

6.9 - жада

ТХК ишлари бажарилишининг даврийлиги ва рўйхатини тўғрилашнинг тахминий шартлари

K_h	Вариация даражаси		
	кичик	ўрта	катта
0,1 дан кичик	$0,10l_{ж} < l < l_{ж}$	$0,15l_{ж} < l < l_{ж}$	$0,20l_{ж} < l < l_{ж}$
0,1-0,2	$0,15l_{ж} < l < l_{ж}$	$0,20l_{ж} < l < l_{ж}$	$0,40l_{ж} < l < l_{ж}$
0,2-0,3	$0,25l_{ж} < l < l_{ж}$	$0,30l_{ж} < l < l_{ж}$	-
0,3-0,4	$0,35l_{ж} < l < l_{ж}$	$0,150l_{ж} < l < l_{ж}$	-
0,4-0,5	$0,45l_{ж} < l < l_{ж}$	-	-
0,5-0,6	$0,55l_{ж} < l < l_{ж}$	-	-
0,6 ва ундан катта	-	-	-

Масалан, ЖТга тўғри келадиган ишлаш давомийлиги $l_{ж.} = 19$ минг км, унинг вариация коэффициента $v_{ж} = 0,6$; нисбий сарфлар коэффициенти $K_h = d/c = 0,25$. Бу амални 0,3 $l_{ж}$ дан 1,0 $l_{ж}$ гача, яъни 5,7-19 минг км ишлаш давомийлиги оралиқда ўтказиш иқтисодий мақсадга мувофиқ. Агар шу АТКда ТХК-1-3 минг км, ТХК-2-12 минг км даврийлик қабул қилинган бўлса, ЖТнинг кўрилаётган амалини ТХК-2 га киритиш мақсадга мувофиқ эмас. ЖТ ходисасига тўғри келадиган ишлаш давомийлиги вариациясининг амалдаги коэффициенти хакида маълумот бўлмагандан, 6.10 -жадвалда келтирилган тавсиялардан фойдаланиш мумкин.

6.10-жадвал

Битта жорий таъмир ҳодисасига тўғри келадиган ишлаш давомийлиги вариацияси коэффициенти қийматларининг диапазонлари

Бузилиш тури	Вариация коэффициенти	Вариация даражаси
Ишқаланувчи жуфтлар ейилиши(сирпаниш подшипниги, поршен ҳалқалари, цилиндрлар гилзаси, ишқаланувчи жуфтлар)	0,1-0,3	Кичик
Буралиш ва эгилишда чарчаб синиши, сирпаниш подшипниги ейилиши. Юза бўйлаб чарчаб уқаланиш Тишли узатмалар емирилиши, комплекс ейилиш (ейилиш, чарчаш ва коррозия биргаликда) Қотирилувчи бирикмаларнинг бўшаши сабабли бузилиш	0,3-0,7	Ўрта
Ёнилғи филтрлари, форсункалари, жиклёрлари, магистралларикирланиши сабабли таъминот тизими бузилиши. Ток ўтказиш контактлари занглаши ва бўшаб қолиши сабабли электр жихозлари элементлари бузилиши	0,7-0,9	Катта

Тезкор тўғрилаш эксплуатация шароитини аниқлаштиришда қўлланади. Масалан, маршрутли автобусларда (23-бобга каранг), ҳамда иш ҳажми бўйича АТКда қабул қилинган ТХК тизими тузилмасига тушмайдиган муҳим профилактик таъсир кўрсатишнинг даврийлигини ўтказиш мақсадга мувофиқлигини асослашда қўлланиши мумкин.

Бу огохлантирувчи деб аталадиган таъмир, (ёки алмаштириш)дир, масалан,



бир неча йилга, олдиндан тузиш мумкин. Шундай қилиб, юк машинасиниң эгаси, материаллар ва эҳтиёт қисмлар қийматини олдиндан билиб, ўз бюджетини олдиндан режалаштириши мумкин.

2. Автомобиллар техник эксплуатацияси ва сервиси бўйича асосий иш турлари ва хизматлари.

Сервис хизмати кўрсатишнинг ҳозирги замон технологик жараёнлари техник хизмат кўрсатиш (ТҲК) ва жорий таъмирлаш (ЖТ) ишлаб чиқариш жараёнларини юқори даражада механизациялаштириш ва автоматлаштириш билан тавсифланади.

Технологик ускуналар конструкциясида ҳозирги замон илм-фаннынг ютуқлари қўлланади, бу эса ишларни бажаришда меҳнат унумдорлигини оширади ва бажариладиган ишлар сифатини кўтаради, таъмирловчи ишчиларнинг меҳнатини енгиллаштиради.

Автотранспорт воситаларига сервис хизмат кўрсатиш ва таъмирлашнинг технологик ускуналари қўйидаги асосий талабларни қондириши керак: хавфсизлик, мустҳкамлик, узоқ вақт ишга чидаш, ишлаб чиқаришда ва ишлаганда тежамкорлик, фойдаланганда ва бошқаришда осонлик ҳамда хизмат кўрсатиш, таъмирлаш, эргономика ва ҳозирги замон дизайн талабларига мослих.

